Har qanday K maydon tartibi K da to'liq modul bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun uning diskreminanti haqida gapirish mumkin. Har qanday sonning izi tartibdagi butun sonidir, unda diskreminant tartibi esa butun ratsional bo'lib hisoblanadi. Eng katta bazis tartibi $\tilde{D}$ son K algebraik sonlar maydonida, ko'pincha fundamental bazis deb aytiladi, uning diskreminanti K maydon diskreminanti deb ataladi. Algebraik sonlar maydoni diskreminanti eng asosiy bo'lib hisoblanadi uning arifmetik harakteristikasida va keyinchalik ko'plab savollarda muhim rol o'ynaydi.

1.1-§ Geometrik usul

Keltirilgan oxirgi 2-ta masalalarni yechish uchun yangi geometrik yondashishlardan xarakterlanadi. Ushbu yondashishlar asosida n o'lchamli fazoda algebraik sonlarni nuqtalarda tasvirlash usuli yotadi, xuddi Koshi tengsizligida kompleks sonlarni tasvirlash usuliga o'xshashdir.

Algebraik sonlarni geometrik tasvirlash. Agar K algebraik sonlar maydonida n -darjali R ratsional sonlar utida bo'lsa, unda C kompleks sonlar maydonida n izomorfizm bo'ladi.

Ta'rif: $\sigma: K \rightarrow C$ izomorfizm K ning obrazi haqiqiy sanlar maydonida bo'ladi, bu izomorfizm σ –haqiqiy deb ataladi, aksincha u kompleks deb ataladi.

Xullas $K = R(\theta)$ kubik maydonda, $\theta^3 = 2$ bo'lsa, $R(\theta) = R(\sqrt[3]{2})$ izomorfizm $\theta = \sqrt[3]{2}$ bo'ladi. Qolgan 2-ta izomorfizmlar $R(\theta) = R(\varepsilon \sqrt[3]{2})$ va $R(\theta) = R(\varepsilon^2 \sqrt[3]{2})$ larda $\varepsilon = \left(\cos \frac{2\pi}{3} + i \sin \frac{2\pi}{3}\right)$ kompleks bo'ladi. Agar d ratsional son bo'lsa, kvadrat bo'lmasa, bunda $R(\theta)$ maydon uchun $\theta^2 = d$ bo'ladi, ikkala izomorfizmlar ham $d > 0$ da haqiqiy bo'ladi va $d < 0$ da kompleks bo'ladi. Umuman ixtiyoriy K algebraik maydon bo'lsa, tanlangan primitiv θ element, $\varphi(t)$ ko'phadning ildizi bo'lib R dagi keltirilmaydigan holda bo'ladi. $\theta_1, \dots, \theta_n$ lar $\varphi(t)$ ni ildizlari bo'lsa, C maydonda unga izomorfizm

$$K = R(\theta) \rightarrow R(\theta_i) \subset C, \quad \theta \rightarrow \theta_i \quad (1)$$

haqiqiy bo'ladi. θ_i ildiz haqiqiy bo'lsa, aksincha kompleks bo'ladi.

Har qanday $\gamma = x + yi$ kompleks son uchun $\bar{\gamma}$ ni qo'shma $x - yi = \bar{\gamma}$ deb belgilaymiz. $\sigma: K \rightarrow C$ kompleks izomorfizmdan, $\bar{\sigma}: K \rightarrow C$ akslanishda

$$\bar{\sigma}(\alpha) = \overline{\sigma(\alpha)} \quad \alpha \in K$$

da ifodalanadi va u kompleks izomorfizm K ni C da bo'ladi. Bu $\bar{\sigma}$ izomorfizm σ ga qo'shma deyiladi. $\bar{\sigma} \neq \sigma$ va $\bar{\bar{\sigma}} = \sigma$ larda barcha kompleks izomorfizmlar K ni C da juftlarga bo'linadi o'zaro qo'shma bo'lgan. (1) ko'rinishdagi ikkita izomorfizm o'zaro izomorfizm bo'ladi qachonki-qachon ularga θ_i va θ_j mos keluvchi ildizlari kompleks qo'shma bo'lsa.

$\mathcal{Q}^{s,t}$ da x nuqtani belgilaymiz. $x' \rightarrow xx'$ ($x' \in \mathcal{Q}^{s,t}$) da akslanish, ya'ni ixtiyoriy nuqtasi $\mathcal{Q}^{s,t} = R^n$ da chiziqli ifodalash bo'ladi. (3) bazisda matrissasi quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{bmatrix} x_1 \cdot \\ \cdot \\ \cdot \\ x_c \\ y_1 - z_1 \\ z_1 y_1 \cdot \\ \cdot \\ \cdot \\ y_t - z_t \\ z_t \quad y_t \end{bmatrix}$$

bu erda yozilmagan barcha elementlari nolga teng. Ushbu matritsa determinanti

$$x_1 \dots x_s (y_1^2 + z_1^2) \dots (y_t^2 + z_t^2) = x_1 \dots x_s |x_{s+1}|^2 \dots |x_{s+t}|^2$$

ga teng. Bu bizga quyidagi ta'rifni eslatadi. $N(x)$ norma ostida ixtiyoriy $x = (x_1, \dots, x_{s+t}) \in \mathcal{Q}_{s,t}$ nuqtada quyidagini tushunamiz:

$$N(x) = x_1 \dots x_s |x_{s+1}|^2 \dots |x_{s+t}|^2$$

Hozirgina qilingan amallarda, $N(x)$ norma x nuqtada ham xuddi $x' \rightarrow xx'$ cuizikli ifodalanish matrissasining determinanti kabi ifodalanadi.

Kiritilgan norma tushunchasi multiplikativlik xususiyati bilan ifodalanadi

$$N(xx') = N(x)N(x')$$

Endi K maydonning nuqtalarini tasvirlashga o'tamiz, $\mathcal{Q}^{s,t}$ fazoda K dagi har bir α nuqta uchun $\mathcal{Q}^{s,t}$ ga mos holda ushbu nuqtalarni olamiz

$$x(\alpha) = (\sigma_1(\alpha), \dots, \sigma_s(\alpha); \sigma_{s+1}(\alpha), \dots, \sigma_{s+t}(\alpha)) \quad (5)$$

bu nuqtalar esa α ni geometrik tasvirlanishi deyiladi. K dagi α va β har xil sonlar uchun, $k = 1, \dots, s + t$ ning har qanday qiymati $\sigma_k(\alpha)$ va $\sigma_k(\beta)$ sanlarda har xil bo'ladi, demak $x(\alpha) \neq x(\beta)$ bo'ladi. Shunday qilib,

$$\alpha \rightarrow x(\alpha), \quad \alpha \in K$$

tasvirlash o'zaro bir qiymatlidir.

Xullas $\sigma_k(\alpha + \beta) = \sigma_k(\alpha) + \sigma_k(\beta)$ va $\sigma_k(\alpha\beta) = \sigma_k(\alpha)\sigma_k(\beta)$,

$$x(\alpha + \beta) = x(\alpha) + x(\beta), \quad (6)$$

$$x(\alpha\beta) = x(\alpha)x(\beta), \quad (7)$$

bo'ladi, ya'ni K da sonarni qo'shish va ko'paytirishlarda ularga mos nuqtalar ham qo'shiladi va ko'paytiriladi.

Agar α ratsional son bo'lsa, $\sigma_k(a\alpha) = \sigma_k(\alpha)\sigma_k(\alpha) = a\sigma_k(\alpha)$ bo'ladi, bundan

$$x(a\alpha) = ax(\alpha) \quad (8)$$

bo'ladi.

Qo'shimcha hollarda

$$\begin{aligned} N(\alpha) &= N_{\frac{K}{\bar{R}}}(\alpha) = \sigma_1(\alpha) \dots \sigma_s(\alpha) \sigma_{s+1}(\alpha) \bar{\sigma}_{s+1}(\alpha) \dots \sigma_{s+t}(\alpha) \bar{\sigma}_{s+t}(\alpha) = \\ &= \sigma_1(\alpha) \dots \sigma_s(\alpha) |\sigma_{s+1}(\alpha)|^2 \dots |\sigma_{s+t}(\alpha)|^2 \end{aligned}$$

ni olamiz, bunda $N(x(\alpha))$ normasi $x(\alpha)$ nuqtada $N(\alpha)$ normasi α nuqtada bir xil bo'ladi (teng):

$$N(x(\alpha)) = N(\alpha), \quad \alpha \in K$$

Ikkita oddiy misolni qaraymiz. Agar d kvadrat bo'lmagan musbat ratsional son bo'lsa, unda haqiqiy kvadrat $R(\theta)$ maydon uchun $\theta^2 = d$ bo'ladi, $\alpha = a + b\theta$ sonni geometrik tasvirlanishida $x(\alpha) = (a + b\sqrt{d}, a - b\sqrt{d})$ nuqta bo'ladi. Eng kichik kvadrat $R(\eta)$ maydon uchun $\eta^2 = -d$ bo'lsa, tasvirlovchi (akslantiruvchi) $\beta = a + b\eta$ nuqta kompleks tekislikda $(a, b\sqrt{d})$ koordinatalari bilan (3) bazisda bo'ladi.

Ixtiyoriy $\alpha_1, \dots, \alpha_n$ bazis uchun K maydonda R da, unga mos keluvchi vektor $x(\alpha_1), \dots, x(\alpha_n)$, $\mathfrak{Q}^{s,t} = \mathfrak{R}^n$ da chiziqli bog'lanmagan bo'ladi (haqiqiy ma'noda).

Buning uchun

$$\begin{aligned} \sigma_k(a_l) &= x_k^{(l)}, \quad 1 \leq k \leq s \\ \sigma_{s+j}(a_l) &= y_j^{(l)} + iz_j^{(l)}, \quad 1 \leq j \leq t \end{aligned}$$

deb olamiz chunki

$$x(a_l) = (x_1^{(l)}, \dots, x_s^{(l)}; y_1^{(l)} + iz_1^{(l)}, \dots, y_t^{(l)} + iz_t^{(l)})$$

vektor (3) bazisda

$$(x_1^{(l)}, \dots, x_s^{(l)}, y_1^{(l)}, z_1^{(l)}, \dots, y_t^{(l)}, z_t^{(l)})$$

koordinataga ega bo'ladi, bunda tasdiqimizni isbotlash uchun,

$$d = \begin{vmatrix} x_1^{(1)} & \dots & x_s^{(1)} & y_1^{(1)} & z_1^{(1)} & \dots & y_t^{(1)} & z_t^{(1)} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ x_1^{(n)} & \dots & x_s^{(n)} & y_1^{(n)} & z_1^{(n)} & \dots & y_t^{(n)} & z_t^{(n)} \end{vmatrix}$$

determinantni faqat noldan farqliligini tekshirish kerak, d ning o'rniga boshqasini qaraymiz.

$$d^* = \begin{vmatrix} x_1^{(1)} & \dots & x_s^{(1)} & y_1^{(1)} + iz_1^{(1)} & y_1^{(1)} - iz_1^{(1)} & \dots \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ x_1^{(n)} & \dots & x_s^{(n)} & y_1^{(n)} + iz_1^{(n)} & y_1^{(n)} - iz_1^{(n)} & \dots \end{vmatrix}$$

uni

$$d^* = \begin{vmatrix} \sigma_1(\alpha_1) & \dots & \sigma_s(\alpha_1) & \sigma_{s+1}(\alpha_1) & \bar{\sigma}_{s+1}(\alpha_1) & \dots \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ \sigma_1(\alpha_n) & \dots & \sigma_s(\alpha_n) & \sigma_{s+1}(\alpha_n) & \bar{\sigma}_{s+1}(\alpha_n) & \dots \end{vmatrix}$$

deb yozib olsak bo'ladi. d^* determinantda $s + 1$ nomerli ustunga keying ustunni qo'shamiz va α ni determinantdan tashqariga chiqaramiz. Bu yangi ustunni keyingisidan ayiramiz, keyin olingan ustundan $s + 2$ nomerli $-i$ ni chiqaramiz. Xuddi shunday amallarni bajarib, har bir juft ustunlardan biz ushbuni olamiz:

$$d^* = (-2i)^t d \quad (9)$$

qo'shimcha tasdiq isbotlandi, ya'ni

$$d^{*2} = D \quad (10)$$

bu erda $D = D(\alpha_1, \dots, \alpha_n)$ esa $\alpha_1, \dots, \alpha_n$ bazisning diskriminanti. Chunki $D \neq 0$ dan (9) va (10) lardan, d ham nolga teng emas.

Endi $\alpha_1, \dots, \alpha_n$ larni K maydondagi M to'liq modulning bazisi deb hisoblaymiz. (6) va (8) lardan har qanday $\alpha = a_1\alpha_1 + \dots + a_n\alpha_n M = (\alpha_1, \dots, \alpha_n)$ lar $\mathfrak{R}^n$ da geometrik tasvirlanishi $x(\alpha) = a_1x(\alpha_1) + \dots + a_nx(\alpha_n)$ vektor bo'ladi.

Biz endi quyidagi natijani olami:

Teorema-1: K maydonning $n = s + 2t$ darajasini geometrik tasvirlashda $\mathfrak{R}^n$ fazoning nuqtalaridagi barcha vektorlar to'plami, $M = \{\alpha_1, \dots, \alpha_n\}$ to'liq modulni tasvirlash sonlarida n ta chiziqli bog'lanmagan barcha butun sonli tasvirlashlar to'plami bilan $x(\alpha_1) + \dots + x(\alpha_n)$ vektorlarda mos tushadi.

II-bob. MODULLAR VA PANJARALAR

2.1-§ Panjaralar

To'la modullarni geometrik o'rganish, ularning xususiyatlariga birinchi teoremda asoslangan. Shuning uchun $\mathfrak{R}^n$ dagi vektorlar majmui qandaydir modulning obrazi bo'lib hisoblanadimi yoki yo'qligini qaraymiz.

Ta'rif. Mayli $e_1, \dots, e_m$, $m \leq n$ chiziqli bog'lanmagan vektorlar sistemasi $\mathfrak{Q}^n$ fazoda bo'lsin. $a_1e_1 + \dots + a_me_m$ ko'rinishidagi barcha vektorlar majmui, a_i bir-biriga bog'lanmagan barcha butun sonlar m o'lchamli panjara deyiladi, $\mathfrak{R}^n$ da $e_1, \dots, e_m$ vektorlari esa ushbu panjarani bazisi deyiladi. Agar $m = n$ bo'lsa, panjara to'liq deyiladi, aksincha to'liqmas deyiladi.

1-teorema ma'nosi esa to'liq modul sonlarini geometrik vektorlarni tasvirlash qandaydir to'liq panjarada bo'ladi. Endi ikkita $e_1, \dots, e_m$ va $f_1, \dots, f_m$ vektorlar sistemasi bittadan va bitta panjarani aniqlaydi, qachon ular o'zaro unimodulyar bog'langan bo'lsa, ya'ni

$$f_i = \sum_{j=1}^m c_{ij}e_j \quad (1 \leq i \leq m)$$

bo'ladi, bu erda (c_{ij}) butun sonli matritsa determinanti bilan ± 1 ga teng. Panjaralarni to'liq o'rganish uchun $\mathfrak{R}^n$ fazoda metrik xususiyatlariga asoslanadi. $\mathfrak{Q}^{s,t} = \mathfrak{R}^n$ da skolyar ko'paytmani kiritamiz, (3) vektorlar ortonomerlangan bazisni ifodalaydi. Agar x va x' vektorlar (3) bazisda $(x_1, \dots, x_n)$ va $(x'_1, \dots, x'_n)$ lardan iborat koordinatalarga ega bo'lsin, bunda (x, x') skolyar ko'paytma quyidagicha bo'ladi:

$$x, x' = xx' + \dots + x_nx'_n$$

Vektorning uzunligini $\|x\|$ bilan belgilanadi r -haqiqiy musbat son bo'lsin. Barcha x nuqtaning $(x_1, \dots, x_n)$ koordinatalari bilan (3)-bazis quyidagicha bo'ladi,

$$\|x\| = \sqrt{x_1^2 + \dots + x_n^2} < r$$

$U(r)$ bilan belgilaymiz. Bu $U(r)$ to'plam shar deb aytiladi, r radiusli va markazi koordinatalar sistemasi boshida $\mathfrak{R}^n$ dagi barcha nuqtalar chegaralangan deyiladi,

agar u qandaydir $U(r)$ sharda joylashgan bo'lsa. $\mathfrak{R}^n$ dagi nuqtalar to'plami diskret deyiladi, agar har qanday $r > 0$ barcha chekli nuqtalar $U(r)$ shar ichida yotgan bo'lsa.

Lemma-1: $\mathfrak{R}^n$ dagi ixtiyoriy $\mathfrak{M}$ panjara nuqtalari diskretdir.

Isbot: Har qanday to'liqsiz panjaralar to'liq panjaralar ichida bo'ladi, demak $\mathfrak{M}$ to'liq panjarada isbotlash etarli bo'ladi. $\mathfrak{M}$ da $e_1, \dots, e_n$ qandaydir bazisni olamiz.

$$(x, e_2) = 0, \dots, (x, e_n) = 0$$

sharti $n - 1$ sistema uchun bizga n ta bir jinsli tenglamalar sistemasini beradi. Chunki bu sistemada noldan farqli yechim mavjud bo'ladi, demak noldan farqli x vektor ham mavjud u $e_2, \dots, e_n$ larda ortogonaldir. Agar biz $(x, e_1) = 0$ ga ega bo'lsak bunda x vektor barcha vektorlarga ortogonal bo'ladi, $\mathfrak{R}^n$ fazoda bu esa mumkin emas. Shundan $(x, e_1) \neq 0$ bo'ladi. $f_1 = \frac{1}{(x, e_1)}x$ vektor ham $e_2, \dots, e_n$ vektorlarga ortogonaldir va $(f_1, e_1) = 1$ bo'ladi. Shunday qilib, har qanday i uchun, biz f_i vektorlarni topishimiz mumkin va bundan:

$$(f_i, e_j) = \begin{cases} 1, & j = i \text{ da} \\ 0, & j \neq i \text{ da} \end{cases}$$

$z = a_1 e_1 + \dots + a_n e_n$ vektor $\mathfrak{M}$ da $U(r)$ sharda yotadi ya'ni $\|z\| < r$. Chunki $a_k(z, f_k)$ bo'lsa, Koshi Bunyokovskiy tengsizligidan olamiz.

$$|a_k| = |(z, f_k)| \leq \|z\| \cdot \|f_k\| < r \|f_k\|$$

bu erda $r \|f_k\|$ esa z ga bog'liq emas. Shundan barcha a_k butun sonlar uchun, $z = \mathfrak{M}$ da $\|z\| < r$ ga ega bo'lamiz. Bu esa 1-lemma isbotidir.

Agar X qandaydir nuqtalar to'plami $\mathfrak{R}^n$ da bo'lsa, barcha $x + z$ nuqtalar to'plami x da to'la joylashadi (bo'ladi) va u ko'chish deb aytiladi. X da z vektorga $X+z$ bo'ladi.

Ta'rif: Agar $e_1, \dots, e_m$ qandaydir panjara bazisi $\mathfrak{M}$ da bo'lsa T to'plam

$$\alpha_1 e_1 + \dots + \alpha_m e_m$$

ko'rinishdagi nuqtalarda $\alpha_1, \dots, \alpha_m$ bir biriga bog'lanmagan halqa haqiqiy sonlar bo'ladi va $0 \leq \alpha_i < 1$ sharda parallelepiped $\mathfrak{M}$ da panjara asosi deb aytiladi.

Asosiy parallelepiped aniqlandi, shundan ular uzining panjarasida bir qiymatli emas, u bazisni tanlashga bog'liq.

Lemma-2: Agar T asosiy parallelepiped $\mathfrak{W}$ panjarada bo'lsa, unda

$$T_z = T + z$$

to'plamda z barcha $\mathfrak{W}$ nuqtalarga o'tadi, juftlikda kesishmaydi, $\mathfrak{R}^n$ fazoni to'liq bildiradi.

Isbot: Agar $e_1, \dots, e_n \rightarrow \mathfrak{W}$ da basis panjarasi bo'lsin $\mathfrak{W}$ unda T parallelepiped qurilgan. Biz $x = x_1 e_1, \dots, x_n e_n$ har anday nuqta uchun $\mathfrak{R}^n$ da faqat va faqat bitta T_z to'plamga tegishli ekanligini ko'rsatishimiz kerak. Har qanday i uchun x_i haqiqiy sonni keltiramiz $x_i = k_i + \alpha_i$ ko'rinishda, bunda k_i butun ratsional son, α_i esa $0 \leq \alpha_i < 1$ shartni qanoatlantiradi.

$z = k_1 e_1 + \dots + k_n e_n$ deb va $u = \alpha_1 e_1 + \dots + \alpha_n e_n$ deb

$$x = u + z \quad (u \in T, z \in \mathfrak{W})$$

ga ega bo'lamiz, bu esa $x \in T_z$ degani. Agar $x \in T_z$ da ya'ni $x = u' + z'$ bo'lsa, $u + z = u' + z'$ taqqoslab e_i dagi koeffitsiyentlarni $z = z'$ ni olamiz 2-lemma isbotlandi.

Lemma-3: $r > 0$ har qanday haqiqiy son uchun T_z chekli sonli to'plamar mavjudki $U(r)$ shar bilan kesishuvchi.

Isbot: $e_1, \dots, e_n$ basis panjarasi $\mathfrak{W}$ da bo'lsin, unga T parallelepiped qurilgan. Agar biz $d = \|e_1\| + \dots + \|e_n\|$ deb olsak, unda har qanday $u = \alpha_1 e_1 + \dots + \alpha_n e_n \in T$ da

$$\|u\| \leq \|\alpha_1 e_1\| + \dots + \|\alpha_n e_n\| = \alpha_1 \|e_1\| + \dots + \alpha_n \|e_n\| < d$$

bo'ladi.

T_z ($z \in \mathfrak{W}$) to'plam $U(r)$ shar bilan kesishsin. Bu qandaydir $x = u + z$ vektor uchun $u \in T, z \in \mathfrak{W}$ da $\|x\| < r$ bo'ladi. Chunki $z = x - u$ bundan

$$\|z\| \leq \|x\| + \|-u\| < r + d$$

bo'ladi 1-lemmadan $z \in \mathfrak{W}$ da faqat chekli sonlar mavjud bo'ladi. 3-lemma isbotlandi.

Ko'rinib turibdiki panjara vektorlarini qo'shish amaliga ko'ra guruh hisoblanadi. Boshqacha aytganda har bir panjara $\mathfrak{R}^n$ additiv guruhning qism guruhi bo'lib hisoblanadi. 1-lemma ko'rsatadiki, buning qism guruhi ancha ixtiyoriy emas. Biz panjara xususiyatini barcha qism guruhlarida $\mathfrak{R}^n$ da panjara bo'lib ifodalanadi.

Lemma-4: Qism guruh: $\mathfrak{M}$ guruh $\mathfrak{R}^n$ dagi uning nuqtalar to'plami diskret bo'lganda panjara bo'lib hisoblanadi.

Isbot: $\mathfrak{S}$ bilan eng kichik chiziqli fazoni $\mathfrak{R}^n$ bilan belgilaymiz, $\mathfrak{M}$ to'plamni o'zida saqllovchi, m bilan $\mathfrak{S}$ ning o'lchamini belgilaymiz. Biz endi $\mathfrak{M}$ da m ta $e_1, \dots, e_m$ vektorlarni tanlab olamiz $\mathfrak{S}$ da basis tashkil etadi. Xullas, $\mathfrak{M}_0 \subset \mathfrak{M}$ ko'rinib turadi. $(\mathfrak{M}:\mathfrak{M}_0)$ chekli indeks ekanligini isbotlaymiz. Haqiqatda ixtiyoriy x vektorni $\mathfrak{M}$ da qaraymiz

$$x = u + z \quad (11)$$

ko'rinishda, (11) bu erda $z \in \mathfrak{M}_0$, u esa parallelepipedga tegishli qurilgan $e_1, \dots, e_m$ bazisda. $z \in \mathfrak{M}$ va $z \in \mathfrak{M}_0 \subset \mathfrak{M}$ satrlardan, chunki $\mathfrak{M}$ guruh hisoblanadi, unda $u \in \mathfrak{M}$ bo'ladi. T chekli to'plam bo'lgani uchun $\mathfrak{M}$ ning diskretligidan unda faqat chekli vektorlar soni $\mathfrak{M}$ dan bo'lad. Bu u vektorni (11) kabi olishda har qanday $x \in \mathfrak{M}$ da, u esa $(\mathfrak{M}:\mathfrak{M}_0)$ ning indekslarini chekli ekanligini anglatadi. $(\mathfrak{M}:\mathfrak{M}_0) = j$ deb, chunki har bir $\mathfrak{M}/\mathfrak{M}_0$ faktor guruhining elementi uchun j buluvchi hisoblanadi, unda $jx \in \mathfrak{M}_0$ da har qanday $x \in \mathfrak{M}$ bo'ladi, bu esa x ni $\frac{1}{j}e_1, \dots, \frac{1}{j}e_m$ orqali chiziqli bog'lanishini butun koeffitsiyentlarda ifodalaydi. Guruh $\frac{1}{j}e_1, \dots, \frac{1}{j}e_m$ bazis bilan $\mathfrak{M}, \mathfrak{M}^*$ panjarada yotadi. Ikkinchi teoremani qo'llab, $\mathfrak{M}$ qism guruhi $\mathfrak{M}^*$ esa $l \leq m$ da $f_1, \dots, f_l$ bazis bo'lishi kerak. $\mathfrak{M}$ panjara bo'lishda biz $f_1, \dots, f_l$ ni chiziqli bog'lanmagan ekanligini butun sonlar ustida ko'rsatamiz. Bu esa m ta chiziqli bog'lanmagan $\mathfrak{R}^n$ dagi $e_1, \dots, e_m$ vektorlar orqali chiziqli bog'langanligi kelib chiqadi. 4-lemma isbotlandi.

2.2-§ Panjaralarning to'liqlik kriteriyasi

Ushbu mavzuda biz birlar guruhini qurishning tadqiqotini algebraik sonlar maydoni tartibida oxirigacha yetkazamiz. Asosiy masala bo'lib, biz yechishimiz uchun oldin muhokama qilganidik. U quyidagicha, ya'ni $\mathfrak{E}$ panjaraning vektorlari birlik tartibli $\mathfrak{D}$ ni tasvirlaydi. Logarifmik tasvirlashda $s + t - 1$ o'lchamga ega bo'ladi. $\mathfrak{E}$ panjara $\mathfrak{R}^{s+t}$ fazoda joylashadi va $\mathfrak{L}$ ning chiziqli fazosida joylashadi, $(\lambda_1, \dots, \lambda_{s+t})$ nuqtalardan iborat bo'lib, ular uchun $\lambda_1, \dots, \lambda_{s+t} = 0$ bo'ladi. Chunki $\mathfrak{L}$ ning ulchami $s + t - 1$ ga teng, bunda bizning masalamiz $\mathfrak{E}$ ni $\mathfrak{L}$ fazoda to'la panjara bo'lishini isbotlaymiz. Biz buni isbotlashda quyidagi panjarani to'liqlik kriteriyasidan foydalanamiz.

1-teorema: $\mathfrak{M}$ panjara $\mathfrak{L}$ fazoda to'la bo'ladi qachonki-qachon, $\mathfrak{L}$ fazoda U cheklangan to'plam mavjud bo'lsa, bunda siljishlar $\mathfrak{M}$ dagi barcha vektorlar $\mathfrak{L}$ fazoni to'laligicha to'ldiradi.

Isbot: $\mathfrak{M}$ panjara to'liq bo'lsa, unda U ning o'rniga uning qandaydir parallelopipedini olish mumkin: ikkinchi lemmaga asosan asosiy parallelopipedning barcha siljishlari to'la panjara vektorlariga o'tishda fazoni butunlay to'ldiradi. Agar endi $\mathfrak{M}$ panjara to'liq bo'lmasa va U ixtiyoriy cheklangan qism soha fazosi $\mathfrak{L}$ da bo'lsin. Endi U to'plam soha siljishi vektorlariga $\mathfrak{M}$ dan $\mathfrak{L}$ fazoni to'ldira olmasligi mumkin. U ning cheklanganligidan shunday $r > 0$ son mavjudki bunda $\|u\| < r$ bo'ladi, barcha $u \in U$ dan. $\mathfrak{L}'$ orqali, $\mathfrak{M}$ ni yaratuvchi vektorlar panjarasida belgilaymiz. Chunki $\mathfrak{M}$ panjara to'liq emas, bunda $\mathfrak{L}'$ xos qism fazosi bo'ladi, shuning uchun $\mathfrak{L}$ da y vektor mavjud, bo'lib $u \in \mathfrak{L}'$ fazoda ortogonal bo'ladi. Barcha y vektorlar, $\|y\| \geq r$ bo'lganda, U siljishni qoplamasi $\mathfrak{M}$ dagi vektorlarga mumkin bo'lmaydi. Haqiqatdan ham, agar y vektor qandaydir siljishda yotadi, bu esa $y = u + z$ ni anglatad, bu er da $u \in U$, $z \in \mathfrak{M}$. Bunda Koshi Bunyakovskiy tengsizligiga asosan

$$\|y\|^2 = (y, y) = (y, u) \leq \|y\| \|u\| < r \|y\|$$

bo'ladi, bundan $\|y\| < r$ olinadi. Shunday qilib 1-teorema isbotlandi. (Buning geometrik ma'nosi shundan iboratki, U to'plamning barcha siljishlari to'liqsiz panjara vektorlariga qatlamda $\mathfrak{L}'$ fazogacha bo'lgan masofalar r dan oshmaydi).

Eslatma: $\mathfrak{M}$ ning to'liqligi topologik terminlarda $\mathfrak{L}$ fazoda teng kuchlidir, bu $\mathfrak{L}/\mathfrak{B}$ faktor guruhlarining kompakt zichligidan ko'rinadi.

Minkovskiyy lemmasi: $s + t - 1$ ning mavjudligi isboti to'liq bo'lmagan birliklarda, oddiy bitta geometrik tasdiqdan asoslanadi. Bu o'z navbatida ko'plab sonlar nazariyasida ilovalarga ega bo'ladi. Ushbu tasdiqning sharti va isbotida hajm tushunchasidan n o'lchamli fazoda va uning ayrim xususiyatlarida foydalaniladi.

$v(X)$ hajm X to'plam uchun n -o'lchamli fazoda $\mathfrak{R}^n$ xuddi karrali integral kabi topiladi.

$$v(X) = \int \dots \int dx_1 dx_2 \dots dx_n$$

(X)

ushbu X to'plamda taqsimlangan holda. Biz hajmning mavjudligi bilan shug'ullanmaymiz. Bizni qiziqtirgan holda X to'plam bir necha tengsizliklar bilan beriladi, ancha odiy holda unda hajmning mavjudligi oson yechiladi. Endi bir necha hajmning xususiyatlariga, integrallarning xossalaridan kelib chiquvchilariga to'xtalamiz.

- 1) Agar $X \subset X'$ ichida bo'lsa, $v(X) \leq v(X')$ bo'ladi.
- 2) Agar X, X' kesishmasa $v(X \cup X') = v(X) + v(X')$ bo'ladi.
- 3) To'plam siljishida uning hajmi saqlanadi ya'ni $v(X + z) = v(X)$
- 4) α musbat haqiqiy sonly bo'lsin. αX orqali barcha αx nuqtalarning to'plamini belgilaymiz, bu erda x barcha X dagi nuqtalarni bosib o'tadi. Bundan

$$v(\alpha X) = \alpha^n v(X).$$

T asosiy parallelopipedning hajmini hisoblaymiz. $\mathfrak{M}$ panjarada $\mathfrak{M}^n$ dazoda $e_1, \dots, e_n$ bazis vektorlariga qurilgan. Agar

$$e_j = (a_{1j}, \dots, a_{nj}), \quad (1 \leq j \leq n)$$

bo'lsa

$$v(T) = |\det(a_{ij})| \quad (1)$$

ekanligini ko'rsatamiz

$$v(T) = \int \dots \int dx_1 \dots dx_n \quad (T)$$

integralda

$$x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij}x'_j \quad (1 \leq i \leq n)$$

kabi almashtirilsin. Ushbu ifodalanishning yakobyani $\det(a_{ij})$ determinantiga teng, u holdan farqli, chunki $e_1, \dots, e_n$ vektorlar chiziqli bog'lanmagan. Chunki bizning ifodalanishimizda T to'plam T_0 to'plamga o'tadi, $(x'_1, \dots, x'_n)$ nuqtalardan iborat va $0 \leq x'_i < 1$ da

$$v(T) = \int \dots \int |\det(a_{ij})| dx'_1 \dots dx'_n = |\det(a_{ij})| \int_0^1 \dots \int_0^1 dx'_1 \dots dx'_n = |\det(a_{ij})| \quad (T_0)$$

1-formula isbotlandi.

$\mathfrak{R}^n$ fazoni qandaydir $x \rightarrow x'$ da ifodalaymiz. $\mathfrak{M}$ panjara esa qandaydir $\mathfrak{M}'$ panjaraga o'tadi, uning asosi T parallelepiped esa $\mathfrak{M}'$ panjaradagi asosiy T' parallelepipedga o'tadi. T' parallelepipedga $e_1, \dots, e_n$ dan $e'_1, \dots, e'_n$ vektorlarga qurilgan. Agar $e'_j = (b_{1j}, \dots, b_{nj})$ ($1 \leq j \leq n$) bunda $v(T') = |\det(b_{ij})|$ ga teng bo'ladi. $C = (c_{ij})$ bilan $x \rightarrow x'$ chiziqli ifodalashda $e_1, \dots, e_n$ uchun

$$e'_j = \sum_{i=1}^n c_{ij}e_i \quad (1 \leq j \leq n)$$

bo'ladi.

$$b_{ij} = \sum_{s=1}^n a_{is}c_{sj}$$

ni (b_{ij}) va (a_{ij}) matritsalarining ko'paytmasi ekanligi ko'rinadi, bu esa

$$v(T') = v(T) \cdot |\det C| \quad (2)$$

ni beradi.

Endi $e_1, \dots, e_n$ va $e'_1, \dots, e'_n$ ikkita bazis va usha $\mathfrak{M}$ panjarada berilgan deb hisoblaymiz. Chunki bu bazislar o'zaro unimodulyar holda bo'lgan (determinant $C = \pm 1$ ga) (2) dan $v(T') = v(T)$ ni olamiz. Bu bilan asosiy parallelepiped hajmi faqat panjaraga bog'liq va bunda bazisning tanlanishiga bog'liq emas.

(1) formulani (9) (10) tengliklar bilan bizni quyidagi teoremaga olib keladi.

Teorema-2: K maydonni geometrik tasvirlashda $n = s + 2t$ darajali $\mathfrak{Q}^{s,t} = \mathfrak{R}^n$ fazo nuqtalarida M to'liq modulni ushbu sonlar bilan D diskreminantida tasvirlaydi, to'liq panjarani ifodalaydi, parallelopipedning to'liq hajmi $2^{-t}\sqrt{|D|}$ ga teng.

Asosiy tasdiqni ifodalash uchun bizga yana ikkita geometrik tushuncha kerak.

To'plam $X \subset \mathfrak{R}^n$ markaziy simmetriya deyiladi, agar har qanday x nuqta uchun unga x ga asosan simmetrik nuqta mavjud.

X to'plam qavariq deyiladi, agar har qanday ikkita nuqta uchun $x \in X$ va $x' \in X$ da, $\alpha x + (1 - \alpha)x'$ nuqtalar ham ushbu to'plamda yotsa, α $0 \leq \alpha \leq 1$ shartni qanoatlantiruvchi haqiqiy son. Boshqacha aytganda, X to'plamni qavariq deb, har qanday kesma uning ikkita nuqtani birlashtiruvchi unda to'liq yotsa.

Teorema-3: (Minkovskiyning qavariq jism haqidagi lemmasi) Agar n -o'lchamli haqiqiy fazoda $\mathfrak{R}^n$ to'liq panjara $\mathfrak{M}$ yotsa-berilsa, asosiy parallelopipedning hajmi Δ ga teng va markaziy simmetrik qavariq X to'plam bilan chegaralangan $v(X)$ hajmli. Agar $v(X) > 2^n \Delta$ bo'lsa, unda X to'plam hech bo'lmaganda bitta $\mathfrak{B}$ panjaraga egadir.

Isbot: Biz ushbu oddiy tasdiqqa asoslanamiz: agar cheklangan $Y \subset \mathfrak{R}^n$ to'plamda $Y_z = Y + z$ bo'lsa, $z \in \mathfrak{M}$ dagi vektorda o'zaro kesishmasa, unda $v(Y) \leq \Delta$ bo'ladi. Isbotlash uchun asosiy parallelopipeddagi $\mathfrak{M}$ panjarani olib va $Y \cap T_{-z}$ kesishmani qaraymiz $T_{-z} = T - z$ siljishda T parallelopipedda.

Bundan

$$v(Y) = \sum_{z \in \mathfrak{M}} v(Y \cap T_{-z})$$

olinadi (Ushbu cheksiz yig'indini chekli hadlari 1 dan farqli, chunki Y to'plam T_{-z} parallelopipedning chekli nuqtalarda kesishadi). $Y \cap T_{-z}$ siljish z vektorida $Y_z \cap T$ oddidir, chunki $v(Y \cap T_{-z}) = v(Y_z \cap T)$ bu esa

$$v(Y) = \sum_{z \in \mathfrak{M}} v(Y_z \cap T)$$

ga teng.

Agar Y_z siljishlari o'zaro kesishmasa, unda barcha nuqtalar T da yotadi, oxirgi tenglik o'ng tomon yig'indisi $v(T)$ katta bo'lmaydi. Bundan $v(Y) \leq v(T)$ bo'ladi. Teorema isbotlandi.

Endi $\frac{1}{2}X$ to'plamni qaraymiz. Teorema shartidan $v\left(\frac{1}{2}X\right) = \frac{1}{2^n}v(X) > \Delta$ bo'ladi. Agar $\frac{1}{2}X + z$ siljish $z \in \mathfrak{M}$ vektorga o'tganda kesishmasa, unda isbotlangandan biz $v\left(\frac{1}{2}X\right) \leq \Delta$ ni olamiz, bu esa o'z navbatida bunday emas. Shundan har hil z_1 va z_2 vektorlar uchun $\mathfrak{M}$ dan $\frac{1}{2}X + z_1$ va $\frac{1}{2}X + z_2$ lar teskari nuqtaga ega bo'ladi.

$$\frac{1}{2}x' + z_1 = \frac{1}{2}x'' + z_2 \quad (x', x'' \in X)$$

oxirgi tenglikni qayta yozamiz:

$$z_1 - z_2 = \frac{1}{2}x'' - \frac{1}{2}x'$$

chunki X to'plam markaziy simmetrikdir, demak $-x' \in X$ va uning qavariqligidan olamiz.

$$\frac{1}{2}x'' - \frac{1}{2}x' = \frac{1}{2}x'' + \frac{1}{2}(-x') \in X$$

Shunday qilib, $z_1 = z_2$ nuqtadan farqli nuqta $\mathfrak{M}$ da X to'plamga qarashli, bu esa talab qilingan isbotdir. 3-teoremani isbotini 1-chi qismidan ushbu soda tasdiq kelib chiqadi.

Lemma-1: Agar Y to'planning barcha siljishlari $\mathfrak{M}$ ning panjara vektorlarida $\mathfrak{R}^n$ fazoni to'liq qoplaydi, bunda $v(Y) \geq \Delta$ bo'ladi.

Haqiqatdan ham bu holda $Y_z \cap T$ bilan kesishmasi asosiy T parallelopipedni to'liq qoplaydi, shuning uchun

$$v(Y) = \sum_{z \in \mathfrak{M}} v(Y_z \cap T) \geq v(T) = \Delta$$

bo'ladi.

Mikovskiyning lemmasiga asosan birlik guruhni kuzatishda, biz $\mathfrak{Q}^{s,t}$ fazo panjarasini olib va X jismga nisbatan, x nuqtalardan iborat holda ushbuga ega bo'lamiz:

$$|x_1| < c_1, \dots, |x_s| < c_s; |x_{s+1}|^2 < c_{s+1}, \dots, |x_{s+t}|^2 < c_{s+t}$$

bu erda $c_1, \dots, c_{s+t}$ haqiqiy musbat sonlar. X ning qavariqligi va markaziy simmetrikligi ko'rinib turadi. Uning hajmini hisoblaymiz. Buning uchun x nuqtada

$$v(X) = \int_{-c_1}^{c_1} dx_1 \dots \int_{-c_s}^{c_s} dx_s \iint_{y_1^2 + z_1^2 < c_{s+1}} dy_1 dz_1 \dots \iint_{y_t^2 + z_t^2 < c_{s+t}} dy_t dz_t = 2^s \pi^t \prod_{i=1}^{s+t} c_i$$

olamiz. Qaraliyotgan jism X uchun Minkovskiy tengsizligini qo'llash bizga qo'yidagi natijani beradi.

Teorema-4: Agar asosiy parallelopipedning hajmi $\mathfrak{M}$ to'liq panjarada $\mathfrak{Q}^{s,t}$ fazoda Δ ga teng va $c_1, \dots, c_{s+t}$ haqiqiy musbat sonlar uchun

$$\prod_{i=1}^{s+t} c_i > \left(\frac{4}{\pi}\right)^t \Delta$$

bo'lsa, $\mathfrak{M}$ panjara nolsiz vektorlarga ega bo'ladi $x = (x_1, \dots, x_{s+t})$ buning uchun quyidagi tengsizlik o'rinalidir:

$$|x_1| < c_1, \dots, |x_s| < c_s; |x_{s+1}|^2 < c_{s+1}, \dots, |x_{s+t}|^2 < c_{s+t} \quad (3)$$

Birlik guruhlarining tuzilishi. Endi biz birlik guruhlarini qurishni ixtiyoriy tartibda oxirigacha yetkazamiz.

Teorema-5: Ixtiyoriy K algebraik sonlar maydonining $\mathfrak{O}$ tartibi uchun $n = s + 2t$ darajali shunday birlar mavjudki $\mathcal{E}_1, \dots, \mathcal{E}_r$ bunda $r = s + t - 1$ bo'ladi, har bir birlik $\mathcal{E} \in \mathfrak{O}$ da bir xilda quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathcal{E} = \zeta \mathcal{E}_1^{a_1} \dots \mathcal{E}_r^{a_r}$$

bu erda $a_1, \dots, a_r$ butun ratsional sonlar ζ esa qandaydir ildiz $\mathfrak{O}$ dan 1 ga teng.

Isbot: Biz oldin aytganimizdek, bizga faqat $\mathfrak{E}$ panjaraning to'liqligini tiklash lozim, $\mathfrak{O}$ tartibli birlarni ifodalovchi, $\mathfrak{L}$ fazoda bunda $s + t - 1$ uning ulchami 1-teoremadan $\mathfrak{L}$ da shunday qism to'plam U mavjudki, uning siljishi $\mathfrak{E}$ dagi barcha vektorlar uchun $\mathfrak{L}$ fazoning to'ldiradi. Oxirgi gapni $\mathfrak{L}^{s,t}$ fazo terminida yozamiz. Odatda har qanday nuqta $\lambda_1, \dots, \lambda_{s+t}$, $\mathfrak{L}$ dan qandaydir $x \in \mathfrak{L}^{s,t}$ dagi nuqtaning abrazi bo'ladi, bunda $x \rightarrow l(x)$ akslantirishdir. Keyinchalik (15) formuladan, har qanday $x \in \mathfrak{L}^{s,t}$ dagi nuqta uchun uning obrazi $l(x)$ logarifmik fazoda $\mathfrak{L}^{s+t}$ qism fazosi $\mathfrak{L}$ ga tegishli qachonki-qachon $|N(x)| = 1$ bo'lsa.

$x \in \mathfrak{L}^{s,t}$ dagi barcha nuqtalar to'plami uchun, $|N(x)| = 1$ bo'lganda uni S bilan belgilaymiz. Agar X_0 ixtiyoriy chegaralangan S qism to'plam bo'lsin, uning obrazi $l(x_0)$ esa $\mathfrak{L}$ fazoda chegaralangan bo'ladi. Haqiqatda ham $x = (x_1, \dots, x_{s+t})$ nuqta uchun ± 1 normada ushbuni olamiz:

$$|x_k| < C \quad (1 \leq k \leq s), \quad |x_{s+j}|^2 < C \quad (1 \leq j \leq t)$$

bunda $l_k(x) < \ln C$ har qanday $k = 1, \dots, s + t$ uchun, bundan tashqari:

$$l_k(x) = - \sum_{i \neq k} l_i(x) > -(s + t - 1)C$$

bo'ladi, bu esa $l(x_0)$ ni cheklanganligini ko'rsatadi. Normaning multiplikasiyasidan $x \in S$ nuqtada va $X_0 \subset S$ qism to'plamida $X_0 x$ ko'paytma ham S da yotadi, xususan har qanday ε birlik $\mathfrak{O}$ tartiblida $X_0 x(\varepsilon) \subset S$ ni olamiz. Agar $X_0 x(\varepsilon)$ ko'paytma har qanday ε birlik uchun S ni to'liq qoplaydi, bunda $l(X_0) + l(\varepsilon)$ esa $\mathfrak{L}$ fazoni to'liq qoplaydi. Shunday qilib, 5-teoremani isbotini S da X_0 cheklangan to'plamni topish yetarli $X_0 x(\varepsilon)$ multiplikasiya siljishi $x(\varepsilon)$ nuqta yordamida S ni qoplaydi.

Agar y ixtiyoriy nuqta S da, $\mathfrak{M}$ panjara $\mathfrak{Q}^{s,t}$ fazoda, $\mathfrak{D}$ tartibli sonni ifodalovchi soni. $\mathfrak{Q}^{s,t}$ fazoni chiziqli $x \rightarrow yx$, ($x \in \mathfrak{Q}^{s,t}$) ifodalashga o'tkazamiz. Biz bilamizki ushbu ifodalash $N(y)$ ga teng ya'ni ± 1 ga teng, demak (2)-formuladan asosiy parallelopipedni hajmi $\mathfrak{M}$ panjara va $y\mathfrak{M}$ lar bir xildir. Uni Δ bilan belgilaymiz. Endi haqiqiy musbat sonni tanlaymiz: $c_1, \dots, c_{s+t}$ shunday qilib

$$Q = c_1, \dots, c_{s+t} > \left(\frac{4}{\pi}\right)^t \Delta$$

va X bilan $x \in \mathfrak{Q}^{s,t}$ dagi nuqtalar to'plamini belgilaymiz, buning uchun (3)-o'rindir. 4-teoremadan $y\mathfrak{M}$ uchun $x = yx(\alpha)$, ($\alpha \in \mathfrak{D}, \alpha \neq 0$) nuqta mavjud X da yotadigan. Demak, $N(x) = N(y)N(\alpha) = \pm N(\alpha)$ va $|N(x)| < c_1, \dots, c_{s+t} = Q$, bunda $|N(\alpha)| < Q$ bo'ladi. 5-teoremadan $\mathfrak{D}$ tartibda o'zaro juft asosirlanmagan sonlar mavjud ularning normalari Q dan kichik. Endi $\alpha_1, \dots, \alpha_N$ sistema sonlarini olamiz $\mathfrak{D}$ da, ular nolga teng bo'lmagan c dagi sonlarning normali Q dan kichik, ularning bittasi bilan asosirlangan. Bundan qandaydir i , ($1 \leq i \leq N$) uchun $\alpha\varepsilon = \alpha_i$ bo'ladi, bu erda ε birlik $\mathfrak{D}$ da. i nuqta quyidagicha bo'ladi:

$$y = xx(\alpha_i^{-1})x(\varepsilon) \quad (4)$$

$$X_0 = S \bigcap \left(\bigcup_{i=1}^N Xx(\alpha_i^{-1}) \right) \quad (5)$$

deb olsak X ning cheklanganligidan, $Xx(\alpha_i^{-1})$ barcha to'plam cheklangan shu bilan birga X_0 ham cheklangan. Keyinchalik $c_1, \dots, c_{s+t}$ sonlarni tanlash X to'plamda hamda $\alpha_1, \dots, \alpha_N$ lar y nuqtadan bog'liq emas, shuning uchun (5)-to'plam $\mathfrak{D}$ tartib bilan aniqlanadi. Xullas, y va $x(\varepsilon)$ esa S ga tegishli, (4)-ning kuchidan $xx(\alpha_i^{-1})$ nuqta ham S ga tegishli, bu esa uni X_0 ga ham tegishliligini bildiradi. (4)-tenglik esa y nuqta S ga tegishli va $X_0x(\varepsilon)$ to'plamga tegishlidir. Shunday qilib, barcha bu to'plamlar S ni qoplaydi, bu esa 5-teoremaning isbotidir.

Oldindan aytilgan Direxle teoremasidan har qanday tartibli $\mathfrak{D}$ birlik guruhlar algebraik sonlar maydonida $n = s + 2t$ darajali ko'rinishda $s + t - 1$ cheksizlik guruh kabi ifodalanadi. Agar $s + t = 1$ bo'lsa, $r = 0$ bo'ladi. Bu holda

$\mathfrak{E}$ panjara nolli vektorlardan tashkil topgan, $\mathfrak{D}$ guruh birligi esa ildizi 1 ga teng chekli guruhdan iborat bo'ladi.

$\varepsilon_1, \dots, \varepsilon_r$ birlarning mavjudligi Direxle teoremasidan kelib chiqadi, ular asosiy birlar deb $\mathfrak{D}$ tartibda deyiladi. Oldingi baxslarda $\varepsilon_1, \dots, \varepsilon_r$ asosiy bo'lib hisoblanadi, qachonki-qachon $l(\varepsilon_1), \dots, l(\varepsilon_r)$ vektorlar $\mathfrak{E}$ panjarada bazisni tashkil etsa. Bundan

$$\varepsilon'_i = \zeta_i \varepsilon_1^{a_{i1}} \dots \varepsilon_r^{a_{ir}} \quad (1 \leq i \leq r)$$

oson olinadi, bu erda ζ_i ixtiyoriy ildiz 1 ham asosiy bo'ladi qachonki-qachon agar (a_{ij}) butun sonli unimodulyarlidir.

Izoh: Direxle teoremasining isboti, ancha foydali emas, qachon $\mathfrak{D}$ tartibli asosiy sistemani topishni algaritmini bermasa. Bu esa to'liq $\alpha_1, \dots, \alpha_N$ assosirlangan sistemani qatnashganligidadir. Ularning normalari Q dan oshmaydi. Bunday sistemaning mavjudligi uncha afzal emas. Afzalligiga biz keyinchalik qaytamiz. Direxle teoremasi eng kata $\tilde{\mathfrak{D}}$ tartibli K maydon uchun o'rinli. Eng kata $\tilde{\mathfrak{D}}$ taribli asosiy birlarni K algebraik maydonning asosiy birliklari ham deb atashadi.

Regulyator boshqaruvi. Kelishganimizdek $\mathfrak{D}$ maydonning har bir tartibi K algebraik sonlar maydonida $n = s + 2t$ tartibli $\mathfrak{E}$ panjara $r = s + t - 1$ o'lchamli $\mathfrak{Q} \subset \mathfrak{R}^{s+t}$ fazoda panjara deb hisoblanadi. Asosiy parallelopipedning hajmi bu panjarada unda bazisni tanlashga bog'liq bo'lmaydi, bu esa u $\mathfrak{D}$ ning tartibi bilan ifodalangan deyiladi. Bu hajmni ifodalaymiz. Agar T_0 asosiy parallelepiped $\mathfrak{D}$ ga tartibli bo'lsin, $l(\varepsilon_1), \dots, l(\varepsilon_r)$ bazisga qurilgan.

$$l_0 = \frac{1}{\sqrt{s+t}} \times (1, \dots, 1) \in \mathfrak{R}^{s+t}$$

ga tegishli, bu esa ko'rinib turadi, $\mathfrak{Q}$ qism bazisiga ortogonaldir va birlik uzunlikga ega. Tushunarliki, r o'lchamli hajm $v = v(T_0)$, $(s+t)$ o'lchamli T parallelepiped hajmiga teng, $l_0, l(\varepsilon_1), \dots, l(\varepsilon_r)$ vektorlarga qurilgan. Shuning uchun (1)-formuladan v hajm determinant qiymati moduliga teng. Uning qatori ushbu vektorlarning komponentlaridan iborat. Agar biz oxirigi determinantdagi

barcha ustunlarni i nomerli qatorga qo'shsak va keyin (18) dan foydalansak ushbu ustun bo'yicha yoyib ushbuni olamiz

$$v = \sqrt{s+t} R$$

bu erda R bitta minorning moduli r tartibli matritsa uchun

$$\begin{pmatrix} l_1(\varepsilon_1) & \dots & l_{s+t}(\varepsilon_1) \\ \dots & \dots & \dots \\ l_1(\varepsilon_r) & \dots & l_{s+t}(\varepsilon_r) \end{pmatrix} \quad (6)$$

Bizning mulohazalarimizdan, xususan r tartibli minorning moduli bo'yicha teng va $\varepsilon_1, \dots, \varepsilon_r$ sistemalarga bog'liq emas. R esa faqat $\mathfrak{D}$ ga bog'liq. U esa $\mathfrak{D}$ tartibli regulyator deyiladi. $\tilde{\mathfrak{D}}$ tartibli eng kata regulyator yana K algebraik sonlar maydoni regulyatori ham deyiladi.

2.3-§ Sonlarni binar kvadratik formalarda tasvirlash.

Bunda biz binar kvadratik formalar uchun asosiy savollarni ancha chuqur o'rganamiz. Chunki har qanday ratsional keltirilmaydigan $ax^2 + bxy + cy^2$ forma chiziqli ko'paytuvchilarga yoyiladi, qandaydir kvadratik maydonda, bunda bizning masalamiz modullarini to'liqligini va ularning kvadratik maydon halqa ko'paytuvchilarining masalalariga bog'lanadi.

Kvadratik maydonlar. Kvadratik maydon deb, har qanday kengaytirilgan R dagi ratsional sonlar maydonining ikkinchi tartibga aytiladi. Endi ushbu oddiy algebraik sonlar maydoni sinfini o'rganamiz.

Agar $d \neq 1$ kvadratdan holi bo'lgan ratsional son bo'lsa. Chunki $t^2 - d$ ko'phad haqiqiy ratsional sonlar maydonida keltirilmaydi, bunda $R(\theta)$ maydon R ga θ ni qo'shish bilan olingan, R da 2 darajaga ega, ya'ni kvadratik maydon bo'lib, hisoblanadi. Biz uni $R\sqrt{d}$ deb belgilaymiz.

Ko'rinib turibdiki aksinchasi ham K dagi har bir kvadrat maydon faqat ko'rsatilgan ko'rinishda bo'ladi. Buni isbotlaymiz. Agar α esa K ga tegishli bo'lsa va iratsionalmas bo'lsa, unda $K = R(\alpha)$ bo'ladi. α uchun R dagi eng kichik ko'p had 2-darajali bo'ladi, shuning uchun qandaydir p va q ratsional sonlarda $\alpha^2 + p\alpha + q = 0$ bo'ladi. $\beta = \alpha + \frac{p}{2}$ deb unda $\beta^2 = \frac{p^2}{4} - q$ bo'ladi. $\frac{p^2}{4} - q$ ratsional sonni c^2d ko'rinishda ifodalash mumkin, bu erda d butun va kvadratdan holi son. $d \neq 1$ esa tushunarli, aksincha β va α ham ratsional bo'lar edi. Agar $\theta = \frac{\beta}{c}$ bo'lsa, unda $\theta^2 = d$ va $K = R(\theta)$ ya'ni $K = R(\sqrt{d})$ bo'ladi. d ratsional har-xil son uchun $(\sqrt{d})$ maydonni har xilligini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham agar $R(\sqrt{d'}) = R(\sqrt{d})$ bo'lsa, unda

$$\sqrt{d'} = x + y\sqrt{d}$$

bo'ladi,

qandaydir x va y ratsional sonlardan

$$d' = x^2 + dy^2 + 2xy\sqrt{d}$$

ni olamiz bundan esa,

$$d' = x^2 + dy^2, \quad 2xy = 0$$

ni olamiz.

Agar $y = 0$ bo'lsa, $d' = x^2$ bo'ladi bu esa mumkin emas. Agar $x = 0$ bo'lsa, $d' = dy^2$ bo'ladi bu esa $d' = d$ ni beradi. Biz shunday qilib, barcha kvadratik formalarni har xil maydonlarda o'zining $d \neq 1$ ga mos holda kvadratdan holi usulda o'zaro mosligini isbotladik.

Kvadratik maydonlarning tartiblari: Maydonning $R(\sqrt{d})$ soni

$$\alpha = x + y\sqrt{d}$$

ko'rinishga ega, bu erda x va y lar ratsionaldir. Chunki α uchun xarakteristik ko'phadi

$$t^2 - 2xt + x^2 - dy^2$$

ga teng, unda α esa $\mathfrak{O}$ ning eng katta tartibiga tegishli $R(\sqrt{d})$ maydonda qachonki-qachon, agar $2x = Sp(\alpha)$ va $x^2 - dy^2 = N(\alpha)$ butun ratsional son bo'lsa.

$2x = m$ deb chunki $\frac{m^2}{4} - dy^2$ esa butun bo'lishi kerak, d esa kvadratdan holi, unda y ning maxraji faqat 2 bo'ladi, ya'ni $y = \frac{n}{2}$, n butun bilan.

$N(\alpha) = \frac{m^2}{4} - d\frac{n^2}{4}$ ligi tushunarli u faqat

$$m^2 - dn^2 \equiv 0 \pmod{4}$$

dagi shart bilan butun bo'ladi. Bu taqqoslashning yechimi d ga bog'liq ya'ni d ning 4-modulida. Chunki d kvadratdan holi, $d \not\equiv 0 \pmod{4}$ va biz uchta holga ega bo'lamiz:

$$d \equiv 1 \pmod{4}; \quad d \equiv 2 \pmod{4}; \quad d \equiv 3 \pmod{4}.$$

Agar $d \equiv 1$ bo'lsa unda (1) esa $m^2 \equiv n^2 \pmod{4}$ ko'rinishga o'tadi, bu esa $m \equiv n \pmod{2}$ ga teng kuchli ya'ni $m = n + 2t$ va biz

$$\alpha = \frac{m}{2} + \frac{n}{2}\sqrt{d} = l + n\frac{1+\sqrt{d}}{2}$$

ni olamiz butun l va n bilan. Shunday qilib $\mathfrak{O}$ ning eng katta bazisi qilib 1 va

$\omega = \frac{1+\sqrt{d}}{2}$ sonlarni olish mumkin.

Endi $d \equiv 2$ yoki 3 bo'lsin. Agar (1) taqqoslashdan n -toqda yechimi bo'lsa, unda $d \equiv m^2 \pmod{4}$ bo'ladi va $d \equiv o \pmod{4}$ m juftda va $d \equiv 1 \pmod{4}$ esa m toqda. Bu esa bizning tasdig'imizga zid. Agar n -juft bo'lsa $m^2 \equiv o \pmod{4}$ dan m -juftni olamiz. Shunday qilib, biz qaralayotgan $x = y\sqrt{d}$ holda son $\tilde{\mathfrak{D}}$ ning eng katta tartibiga tegishli $R(\sqrt{d})$ maydonda faqat $x = \frac{m}{2}$ va $y = \frac{n}{2}$ larda. $\tilde{\mathfrak{D}}$ ning bazisi sifatida son 1 va $\omega = \sqrt{d}$ larni olish mumkin.

Keyinchalik bazisning eng katta tartibida $R(\sqrt{d})$ maydonda. Chunki $\mathfrak{D}$ esa $\tilde{\mathfrak{D}}$ ning eng kattasiga tegishli bo'ladi, bunda $\mathfrak{D}$ esa $x + y\omega$ ko'rinishga butun x va y ratsionallari bilan. Ulardan y ning musbat eng kichik koeffisientini tanlab olamiz. Agar u $a + f\omega$ ga tegishli bo'lsa, chunki a ratsional son $\mathfrak{D}$ ga tegishli, demak $f\omega \in \mathfrak{D}$ ham. Endi har qanday $x + y\omega$ uchun $\mathfrak{D}$ da y esa f ga bo'linadi, bu esa $\mathfrak{D} = \{1, f\omega\}$ degani. Aksincha 3-lemmadan har qanday f modul uchun $\{1, f\omega\}$ halqa bo'ladi, demak ularni har xil va quyidagi fakti olamiz: Kvadratik maydondagi barcha tartiblar o'zaro bir qiymatli barcha natural sonlar bilan.

Keyinchalik $\{1, f\omega\}$ tariblarini $\mathfrak{D}$ bilan belgilaymiz f sonlar esa $\mathfrak{D}f$ ning indekslariga teng $\tilde{\mathfrak{D}} = \mathfrak{D}_1 = \{1, \omega\}$ ning maksimum tartibida. Shunday qilib kvadratik maydonning har bir tartibi, o'zining maksimum tartibi indeksi bilan aniqlanadi.

Endi $\mathfrak{D}_f$ diskreminantni hisoblash bilan shug'ullanamiz $\mathfrak{D}_f$ tartibda. Dastlab $d \equiv 1 \pmod{4}$ deb olib, chunki $Sp\sqrt{d} = 0$ bundan

$$Sp\omega = Sp\left(\frac{1 + \sqrt{d}}{2}\right) = 1$$

ni olamiz va undan

$$Sp\omega^2 = Sp\left(\frac{d + 1}{4} + \frac{\sqrt{d}}{2}\right) = \frac{d + 1}{2}$$

ni olamiz.

Agar $d \equiv 2$ yoli $3 \pmod{4}$ bo'lsa, unda

$$\mathfrak{D}_f = \begin{vmatrix} Sp1 & Spf\omega \\ Spf\omega & Spf^2\omega^2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 2 & f \\ f & f^2 \frac{d+1}{2} \end{vmatrix} = f^2 d$$

bo'ladi. Olingan $\mathfrak{D}_f$ uchun formulalar bizga, har bir tartibni kvadratik maydonda o'zining diskreminanti bilan bir xil ifodalanadi. Ushbu bandda natijalarini teorema kabi ifodalaymiz.

Teorema-1: Agar $d \neq 1$ kvadratdan xolis musbat ratsional son bo'lsa, $\tilde{\mathfrak{D}}$ tartibning bazisi sifatida $R(\sqrt{d})$ kvadratik maydonda 1 va ω sonlarni olish mumkin, bu yerda $\omega = \frac{1+\sqrt{d}}{2}$ bo'ladi $d \equiv 1 \pmod{4}$ da va $\omega = \sqrt{d}$ bo'ladi, $d \equiv 2, 3 \pmod{4}$ larda. D_1 diskreminant $\tilde{\mathfrak{D}}$ tartibli birinchi holda d ga teng, ikkinchi holda $4d$ ga teng. $\mathfrak{D}$ ning ixtiyoriy tartibi $R(\sqrt{d})$ maydonda $\mathfrak{D}_f = \{1, f\omega\}$ ko'rinishga ega, bu erda f esa $(\tilde{\mathfrak{D}}:\mathfrak{D})$ ning indeksi $\mathfrak{D}_f$ tartibli diskreminanti $D_1 f^2$ ga teng.

Birlar. Xullas barcha sonlar $\mathfrak{D}_f$ tartibli $x + yf\omega$ ko'rinishda ifodalanadi, x va y butun ratsionallar bilan 4-teoramadan $\mathfrak{D}_f$ barcha birlarni topamiz, agar

$$N(x + yf\omega) = \pm 1 \quad (2)$$

tenglamani yechsak, ya'ni

$$x^2 + fxy + f^2 \frac{1-d}{4} y^2 = \pm 1 \quad (3)$$

$d \equiv 1 \pmod{4}$ da

$$x^2 - df^2 y^2 = \pm 1 \quad (4)$$

Endi eng kichik kvadratik maydon uchun $s = 0$, $t = 1$, $r = s + t - 1 = 0$ bo'ladi, bu degani birlar guruhi ixtiyoriy tartibda chekli va 1 dan iborat ildizlar. Bu fakt esa (3) va (4) tenglamalarning $d < 0$ bilan moslashadi, faqat butun sonli yechimga ega bo'ladi. Agar $d = -1$, $f = 1$ larda (4)-tenglama: $x = \pm 1$, $y = 0$; $x = 0$, $y = \pm 1$ yechimlarga ega bo'ladi, ular ± 1 , $\pm i$ larga mos keladi, 1 ning to'rtinchi darajasida. $d = -3$, $f = 1$ da (3)-tenglama oltita yechimga ega: $x = \pm 1$, $y = 0$; $x = 0$, $y = \pm 1$; $x = 1$, $y = -1$; $x = -1$, $y = 1$ mos holda ± 1 , $\pm \frac{1}{2} \pm \frac{i\sqrt{3}}{2}$ lar 1 ning oltinchi darajasidan. Qolgan barcha tartiblar

uchun mavhum kvadratik maydonda (3) yoki (4) tenglamalar nol holda yechimlarga ega: $x = \pm 1$, $y = 0$ ya'ni ularning barcha birlari ± 1 sonlar bilan aniqlanadi.

Murakkab holi haqiqiy kvadratik maydonda $R(\sqrt{d})$, $d > 0$ da bo'ladi. Chunki, bunda $s = 2$, $t = 0$ va $r = 1$ bo'ladi, bundan barcha $\mathfrak{O}_f$ tartibi birlari $R(\sqrt{d})$ maydonda $\pm \varepsilon^n$ ko'rinishga ega bo'ladi, bu erda ε asosiy birlik $\mathfrak{O}_f$ da. Bu erda savol asosiy ε birni topishga olib keladi. ε bilan $\frac{1}{\varepsilon}$, $-\varepsilon$, $-\frac{1}{\varepsilon}$ lar ham asosiy birlar bo'lib hisoblanadi. Buning uchun $\varepsilon > 1$ deb hisoblash mumkin. Tushunarli $\varepsilon > 1$ da asosiy ε birlar birdan topiladi.

$\eta > 1$ birlar uchun $\mathfrak{O}_f$ da u $\eta = x + yf\omega$ kabi $1, f\omega$ bazis orqali x va y larning koeffisientlari musbat ($d = 5$, $f = 1$ da $x = 0$ bo'ladi). Har qanday $\alpha \in R(\sqrt{d})$ uchun α' orqali unga qo'shma sonni belgilaymiz, ya'ni α ni obrazi avtomorfizmda $\sqrt{d} \rightarrow -\sqrt{d}$ ga o'tadi $R(\sqrt{d})$ da $\omega - \omega' > 0$ ekanligi ko'rinib turibdi. Chunki $N(\eta) = \eta\eta' = \pm 1$ bunda η' birlik yoki $\frac{1}{\eta}$ yoki $-\frac{1}{\eta}$ ga teng va ikkala holda ham $\eta - \eta' > 0$ ya'ni $yf(\omega - \omega') > 0$ bu $y > 0$ ni bildiradi. Keyinchalik $|\eta'| = |x + yf\omega'| < 1$ va $f\omega' < -1$ bo'lgani uchun $d = 5$, $f = 1$ va $x > 0$ dan tashqari ($d = 5$, $f = 1$, $-1 < f\omega' = \frac{1-\sqrt{5}}{2} < 0$, $x \geq 0$) hollarda.

Agar $\varepsilon > 1$ asosiy birlik $\mathfrak{O}_f$ tartibda bo'lsin. $\varepsilon^n = x_1 + y_1f\omega$ birlar uchun n naturalda $x_1 > x$ va $y_1 > y$ bo'ladi. Shundan, asosiy $\varepsilon > 1$ birga biz (2) tenglamani butun yechimini eng kichik x va y lar qiymatlarida topishimiz kerak. Olingan natijalardan foydalanib, biz x va y lar qiymatlarini yuqoridan C -konstanta bilan baholaymiz, undan keyin bu tajriba chekli sinovlarga borib taqaladi. Endi biz, sinov sonlari asosiy birni hisoblashlardagi ancha qisqartirilgan bo'lishi mumkin, uzluksiz kasrlarning nazariyasidagi faktlardan. Bunda gap $\xi > 0$ to'g'risida ketadi va natural x va y larning o'zaro tengsizlikda ifodalanadi

$$\left| \frac{x}{y} - \xi \right| < \frac{1}{2y^2}$$

bunda $\frac{x}{y}$ esa ξ ni yoyilmasidagi mos kasrda bo'ladi. (2)-dan

$$\left| \frac{x}{y} + f\omega' \right| = \frac{1}{y(x + yf\omega)}$$

ni olamiz.

Agar $d \equiv 1 \pmod{4}$ da $d = 5$, $f = 1$ dan tashqari, ushbuni olamiz:

$$\left| \frac{x}{y} - f \frac{\sqrt{d}-1}{2} \right| = \frac{1}{y^2 \left(\frac{x}{y} + f \frac{\sqrt{d}+1}{2} \right)} < \frac{1}{2y^2}$$

(chunki $\frac{x}{y} > 0$ va $f \frac{\sqrt{d}+1}{2} > 2$). Agar $d \equiv 2, 3 \pmod{4}$ bo'lsa,

$x^2 = fdy^2 \pm 1 \geq dy^2 - 1 \geq y^2(d-1)$ va $d \geq 2$ dan olamiz:

$$\left| \frac{x}{y} - f\sqrt{d} \right| = \frac{1}{y(x + yf\sqrt{d})} \leq \frac{1}{y^2(\sqrt{d}-1 + \sqrt{d})} < \frac{1}{2y^2}$$

Eslatilgan teoremadan $\frac{x}{y}$ qisqarmaydigan kasr, maqul bo'lgan $-f\omega'$ ni uzluksiz kasrga yoyishda kasr hisoblanadi. (2)-teoremaning eng kichik musbat yechimini topish uchun, biz $-f\omega'$ uchun mos keluvchi surat va maxrajlarini sinashimiz kerak. Amalda esa quyidagicha. $-f\omega'$ son uchun ketma-ket q_k to'liqsiz bo'linmani topamiz ($k \geq 0$) va P_k suratni va Q_k maxrajni mos kasrlarda. Hisoblashni davom ettiramiz, hozircha qandaydir $N(P_k + \omega f Q_k)$ qadamda $+1$ yoki -1 ga teng bo'lishi mumkin. Bu albatta $P_k < C$ da paydo bo'ladi va asosiy birlar $\varepsilon = P_k + \omega f Q_k$ topiladi. Endi misollarda ko'rsatamiz

1-misol: $\{1, 3\sqrt{6}\}$ tartibli asosiy birlarni topish uchun $R\sqrt{6}$ maydonda, $-3\omega' = 3\sqrt{6}$ sonni uzluksiz kasrga yoyamiz:

$$\sqrt{54} = 7 + (\sqrt{54} - 7),$$

$$\frac{1}{\sqrt{54} - 7} = 2 + \frac{\sqrt{54} - 3}{5}$$

$$\frac{5}{\sqrt{54} - 3} = 1 + \frac{\sqrt{54} - 6}{9}$$

$$\frac{9}{\sqrt{54} - 6} = 6 + \frac{\sqrt{54} - 6}{2}$$

$$\frac{2}{\sqrt{54}-6} = 1 + \frac{\sqrt{54}-3}{9}$$

Bir vaqatda jadvalni to'ldiramiz:

k	0	1	2	3	4	5
q_k	7	2	1	6	1	2
P_k	7	15	22	147	169	485
Q_k	1	2	3	20	23	66
$P_k^2 - 54Q_k^2$	-5	9	-2	9	-5	1

$\{1, 3\sqrt{6}\}$ tartibli asosiy birlar, mos holda ushbularga teng:

$$485 + 66 \cdot 3\sqrt{6} = 485 + 198\sqrt{6}$$

2-misol: $R(\sqrt{41})$ maydonning asosiy birlarini hisoblaymiz :

$$\frac{\sqrt{41}-1}{2} = 2 + \frac{\sqrt{41}-5}{2}$$

$$\frac{2}{\sqrt{41}-5} = 1 + \frac{\sqrt{41}-3}{8}$$

$$\frac{8}{\sqrt{41}-3} = 2 + \frac{\sqrt{41}-5}{4}$$

$$\frac{4}{\sqrt{41}-5} = 2 + \frac{\sqrt{41}-3}{4}$$

$$\frac{4}{\sqrt{41}-3} = 1 + \frac{\sqrt{41}-5}{8}$$

k	0	1	2	3	4
q_k	2	1	2	2	1
P_k	2	3	8	19	27
Q_k	1	1	3	7	10
$P_k^2 - P_k Q_k - 10Q_k^2$	-4	2	-2	4	-1

asosiy birlarning eng kata tartibi $R(\sqrt{41})$ maydonda quyidagiga teng:

$$27 + 10 \frac{\sqrt{41} + 1}{2} = 32 + 5\sqrt{41}$$

Modullar: Kvadratik maydonlardagi to'la modullarning o'rganishga o'tamiz. Chunki har qanday $\{\alpha, \beta\}$ modul $\{1, \frac{\beta}{\alpha}\}$ modulga o'xshash, bunda biz $\{1, \gamma\}$ ko'rinishdagilar bilan chegaralanamiz.

Agar qanday ratsional bo'lmagan γ va $R(\sqrt{d})$ sonlar uchun qandaydir ko'phad $at^2 + bt + c$ butun ratsional koeffisientlarda. Agar biz a, b, c sonlarga $(a, b, c) = 1$ shartni va $a > 0$ ni yoysak, unda ushbu ko'phadga $at^2 + bt + c$, γ bir xilda topiladi. Keyinchalik uni $\varphi_\gamma(t)$ orqali belgilaymiz. Qo'shma γ' uchun $\varphi_{\gamma'}(t) = \varphi_\gamma(t)$ ni olamiz, bundan tashqari $\varphi_{\gamma_1}(t) = \varphi_\gamma(t)$ ham o'rinalidir, γ_1 agar γ ga yoki γ' ga teng bo'lsa.

Lemma-1: Agar γ ratsionalmas songa $R(\sqrt{d})$ maydondan $\varphi_\gamma(t)$ ko'phad $at^2 + bt + c$ ga teng bo'lsa, $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilari $M = \{1, \gamma\}$ modulda $\{1, a\gamma\}$ tartib bilan $D = b^2 - 4ac$ diskreminantni bo'ladi.

Isbot: x va y ratsionallarda $\alpha = x + y\gamma$ sonni qaraymiz. Chunki $\alpha M \subset M$ teng kuchli $\alpha \cdot 1 = x + y\gamma \in M$ va

$$\alpha \cdot \gamma = -\frac{cy}{a} + \left(x - \frac{by}{a}\right)\gamma \in M$$

ga, bunda α esa $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilariga tegishli qachonki-qachon ratsional sonlar

$$x, y, \frac{cy}{a}, \frac{by}{a}$$

larning hammasi butun bo'lsa, ya'ni x va y lar butun bo'lganda, bundan tashqari y esa a ga bo'linadi (oxiridagidan $(a, b, c) = 1$). Bu esa $\mathfrak{O} = \{1, a\gamma\}$ ni isboti bo'ladi. Isbotni tugatish ushun $\mathfrak{O}$ diskreminantni topish qoldi.

$$D = \begin{vmatrix} Sp^1 & Spa\gamma \\ Spa\gamma & Spa^2\gamma^2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 2 & -b \\ -b & b^2 - 2ac \end{vmatrix} = b^2 - 4ac$$

Izoh: O'sha belgilashlarda $\{1, \gamma\}$ modullarning normasi $\frac{1}{a}$ ga tengdir.

Haqiqatdan ham $1, \alpha\gamma$ bazisdan $1, \gamma$ bazisga o'tish matrissasi

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 \\ 0 & \frac{1}{a} \end{pmatrix}$$

ga teng.

Lemma-2: $\{1, \gamma_1\}$ va $\{1, \gamma\}$ modullar o'xshash bo'lishi uchun zarur va etarli γ_1 va γ sonlar ushbu munosabat bilan bog'lanishi:

$$\gamma_1 = \frac{k\gamma + l}{m\gamma + n} \quad (5)$$

bu erda k, l, m, n lar shundaki, bunda

$$\begin{vmatrix} k & l \\ m & n \end{vmatrix} = \pm 1 \quad (6)$$

bo'ladi.

Isbot: Bitta moduldagi ikkita har xil bazislar o'zaro unimodulyar ifodalarda bog'langan, bunda $\{\alpha, \alpha\gamma_1\} = \{1, \gamma\}$ bo'ladi va bundan

$$\alpha\gamma_1 = k\gamma + l$$

$$\alpha = m\gamma + n$$

bo'ladi, k, l, m, n butun ratsionaldir (6)-shartda. Birinchi tenglikni ikkinchisiga bo'lib, (5)-ni olamiz. Aksincha γ_1 va γ lar (5)-bilan bog'langan. Bundan

$$\{1, \gamma_1\} = \frac{1}{m\gamma + n} \{m\gamma + n, k\gamma + l\} = \frac{1}{m\gamma + n} \{1, \gamma\}$$

($\{m\gamma + n, k\gamma + l\} = \{1, \gamma\}$ dan (6) olinadi) 2-lemma isbotlandi.

$R(\sqrt{d})$ maydon modullarni qaraymiz, qandaydir $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli holda. 3-teoremadan bu modullar chekli sinflarga o'xshash modullarda bo'linadi. Biz sinflarni ko'paytirishni ko'rsatamiz, bunga nisbatan o'xshash modullar $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli bo'lib, guruhni tashkil etadi.

Agar $M = \{\alpha, \beta\}$ va $M_1 = \{\alpha_1, \beta_1\}$ ikkita modullarning ko'paytmasini MM_1 modul deb $\{\alpha\alpha_1, \alpha\beta_1, \beta\alpha_1, \beta\beta_1\}$ bo'ladi. Oddiyki $\lambda \neq 0$ da $\mu \neq 0$

$$(\lambda M)(\mu M_1) = \lambda\mu(MM_1) \quad (7)$$

Har qanday modul M va $[M]$ uchun o'xshash modullarning sinfini belgilaymiz, M bilan birgalikda. (7)-tenglikdan $[MM_1]$ sinf faqat $[M]$ va $[M_1]$ ga bog'liq. $[MM_1]$ sinf ko'paytmasi $[M]$ va $[M_1]$ lar uchun. Ikkita sinfni ko'paytirish uchun, ularni tanlab ko'paytirish kerak. Ushbu ko'paytmalar sinflarning ko'paytmasi deyiladi.

Har bir modul uchun M va M' qo'shma modullarni α' va α bilan belgilaymiz. Chunki $\alpha + \alpha' = Sp\alpha$ ratsional, bunda $\alpha' \in R(\sqrt{d})$ bu esa M' va M bazisga $R(\sqrt{d})$ maydon to'la moduli hisoblanadi. Har qanday $\mathfrak{D}$ tartib uchun $\mathfrak{D}'$ qo'shma modul $\mathfrak{D}$ bilan mos keladi. Bundan qo'shma modullar bir xil halqa ko'paytuvchilarga ega.

$$MM' = N(M)\mathfrak{D} \quad (8)$$

ni isbotlaymiz, bunda $\mathfrak{D}$ halqa ko'paytuvchilari, $N(M)$ norma M modul.

Dastlab, $\mathfrak{D}$ modul $\{1, \gamma\}$ kabi bo'ladi. Bundan 1-lemmadan biz ushbuni olamiz:

$$\begin{aligned} MM' &= \{1, \gamma\}\{1, \gamma'\} = \{1, \gamma, \gamma', \gamma\gamma'\} = \left\{1, \gamma, -\gamma - \frac{b}{a}, -\frac{c}{a}\right\} = \\ &= \left\{1, \gamma, -\frac{b}{a}, -\frac{c}{a}\right\} = \frac{1}{a}\{a, b, c, a\gamma\} \end{aligned}$$

Chunki a, b va c o'zaro tubdir, uning barcha butun sonli chiziqli kombinatsiyalari Z butun sonlar halqasi bilan mos keladi va bundan:

$$MM' = \frac{1}{a}\{1, a\gamma\} = \frac{1}{a}\mathfrak{D} = N(M)\mathfrak{D}$$

ni olamiz. Agar endi M ixtiyoriy modul bo'lsa, uni $M = \alpha M_1$ kabi ifodalash mumkin, bu erda M_1 esa $\{1, \gamma\}$ bo'ladi. 2-teoremadan quyidagini olamiz:

$$MM' = \alpha\alpha' M_1 M_1' = N(\alpha)N(M_1)\mathfrak{D} = |N(\alpha)|N(M_1)\mathfrak{D} = N(M)\mathfrak{D}$$

bo'ladi, (8)-formula isbotlandi umumiy holda.

Endi M va M_1 ikkita modullar, bitta $\mathfrak{D}$ tartibda. $\bar{\mathfrak{D}}$ halqa ko'phad ko'paytuvchilari MM_1 (8)-formuladan

$$MM_1(MM_1)' = N(M)N(M_1)\bar{\mathfrak{D}}$$

bo'ladi.

Shunday qilib, M va M_1 modullar $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli, bunda ularning ko'paytmasi MM_1 ham $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli bo'ladi. Chunki, har qanday M modul uchun $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchisi bir vaqtda $M\mathfrak{O} = M$ va $M\left(\frac{1}{N(M)}M'\right) = \mathfrak{O}$ bo'ladi, keyin biz ushbu natijani olamiz.

Teorema-2: Kvadratik moydonning barcha modullari bitta tartibda, ko'paytirish amaliga nisbatatan kommutativ guruhni tashkil etadi.

Ushbu teorema 3-teoremadan kelib chiqadi.

Teorema-3: Kvadratik moydonning barcha o'xshash modullari ushbu $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchisi bilan chekli kommutativ guruhni tashkil etadi.

2 va 3-teoremlar kvadratik maydon modullar uchun o'rinli va aksincha o'rinli emas.

Modullar va formalar orasidagi mosluklar.

Dastlabki tasdiqlardan har bir α, β bazislar uchun $M \subset R(\sqrt{d})$ to'la modullar bir xilda binar kvadratik formaga mos keladi $N(\alpha x + \beta y)$ ratsional koeffisientlarda. Chunki har xil M dagi bazislar uchun ularga mos keluvchi formalar teng kuchlidir, bunda M modulga bir qator ekvivalent sinflar mos keladi. Keyinchalik, M ning o'rniga unga ekvivalent αM ni olsak, unda bizning barcha formalarimiz $N(\alpha)$ doimiy ko'paytuvchini talab qiladi. Bunda, formalarni ularni doimiy ko'paytuvchilari son qiymtlarni aniqlikda, har bir o'xshash sinflarga qandaydir o'xshash ekvivalent sinflar mos keladi deyiladi. Bu xoslik bir xilli bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda o'zaro qo'shma $M = \{\alpha, \beta\}$ va $M' = \{\alpha', \beta'\}$ lar umuman olganda o'xshash emas, ularga mos keluvchi formalar mos keladi. Xuddi shuningdek har qanday darajali yoyiluvchi formalarda ham. Umumiy holda ushbu sinflar va modullar orasidagi farqlarni aniq usuli mavjud emas. Lekin kvadratik maydonlarda, bir xillik mavjud, agar ozgina ekvivalentlik ta'rifini o'zgartirsa va o'xshashlik modullarda.

Ta'rif: Binar kvadratik forma $f(x, y) = Ax^2 + Bxy + Cy^2$ butun ratsional koeffisientlarda primitiv deyiladi, agar eng kata umumiy bo'luvchi uning

koeffitsientlarida 1 ga teng bo'lsa. $B^2 - 4AC$ son diskreminant f primitiv forma uchun deyiladi.

Primitiv formalarning diskreminanti, uning determinantidan farq qiladi $AC - \frac{B^2}{4}$, doimiy -4 bilan.

Primitiv formalarga ekvivalentlilar ham primitiv forma bo'ladi. Chiziqli ifodalashda o'zgaruvchilar C matrisa kvadratik forma determinanti $(\det C)^2$ ga ega bo'ladi, bundan $\det C = \pm 1$. Bundan ular bir xil diskreminantga ega.

Ta'rif: Ikkita primitiv formalar xos ekvivalent ldir, agar bittasi ikkinchisini xosil qilsa doimiy chiziqli o'zgaruvchilarni ifodalashda $+1$ determinant bilan.

Barcha primitiv binar kvadratik formalar xos ekvivalent formalarga bo'linadi. Keyinchalik biz doimo xos ekvivalent haqida gapiramiz. Ko'pchilik hollarda ikkita forma, xosmas ekvivalentlar ham xuddi xos ekvivalentlar kabi bo'ladi deymiz.

Ta'rif: Ikkita to'liq M va M_1 modullar kvadratik maydonda o'xshash deyiladi, tor ma'noda, agar $M_1 = \alpha M$ qandaydir α musbat norma bilan.

Har qanday muhim kvadratik forma uchun maydon normasi $\alpha \neq 0$ da musbatdir, bu holat tor ma'nodagi o'xshashlik tushunchasi, oddiy o'xshashlikdan farq qilmaydi. Xuddi shunday haqiqiy kvadratik maydonda ham, agar $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilarida qaralayotgan modul ε birlikka ega bo'lsa, unda $N(\varepsilon) = -1$. Haqiqatdan ham $M_1 = \alpha M$ va $N(\alpha) < 0$ bundan $\varepsilon M = M$ demak $M_1 = (\alpha\varepsilon)M$, lekin $N(\alpha\varepsilon) > 0$ bo'ladi. Aksincha o'xshashlik tor ma'noda ya'ni $M_1 = \alpha M$, $N(\alpha) < 0$ dan β mavjud bo'ladi va $N(\beta) > 0$; $M_1 = \beta M$. $\varepsilon = \alpha\beta^{-1}$ deb $\varepsilon M = M$ bo'ladi, bu esa $\varepsilon \rightarrow \mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchisidir, $N(\varepsilon) = -1$ bo'ladi.

Shunday qilib, tor ma'nodagi tushuncha, o'xshash tushunchadan faqat shunday haqiqiy kvadratik maydonlar uchun, ularning halqa ko'paytuvchilarining barcha birliklari $+1$ normaga ega. Tushunarli, har bir sinf modullari keng o'xshashlik ma'nosida ikkita sinfga bo'linadi, xuddi tor o'xshashlikdagi kabi.

Endi modul sinflari bilan forma sinflari orasidagi moslikni keltiramiz.

Har bir M modul uchun $R(\sqrt{d})$ maydonda, biz faqat α, β bazislarni qaraymiz, ular uchun

$$\Delta = \begin{vmatrix} \alpha & \beta \\ \alpha' & \beta' \end{vmatrix} \quad (9)$$

determinant ushbu shartni qanoatlantiradi

$$\left. \begin{array}{l} \Delta > 0, \quad d > 0 \text{ da} \\ \frac{1}{i}\Delta > 0, \quad d < 0 \text{ da} \end{array} \right\} \quad (10)$$

α va β bilan qo'shma bo'lgan hollarda. (M dagi bazislar (10)-xossa bilan ifodalanadi, agar birinchi bazis α_1 va α_2 unga mos bo'lmasa, unda α_1 ni α_2 bilan o'rin almashtiriladi. α' va β' lar $R(\sqrt{d})$ dagi sonlar, qo'shma α va β bilan).

M moduldag α, β bazislarga (10)-qanoatlantirilsa, uni quyidagi formada ifodalaymiz:

$$f(x, y) = Ax^2 + Bxy + Cy^2 = \frac{N(\alpha x + \beta y)}{N(M)} = \frac{(\alpha x + \beta y)(\alpha' x + \beta' y)}{N(M)} \quad (11)$$

($N(M) - M$ modul normasi). Agar $\gamma = -\frac{\beta}{\alpha}$ bo'lsa $\varphi_\gamma(t) = at^2 + bt + c$ bo'ladi, undan esa

$$N(\alpha x + \beta y) = \frac{N(\alpha)}{a} (ax^2 + bxy + cy^2)$$

olamiz.

Boshqa tomondan, 1-lemmadan va 2-teoremadan $M = \{1, \gamma\}$ normada $\frac{|N(\alpha)|}{a}$ ga teng. Bundan A, B, C koeffisientlar a, b, c larda faqat ishoralari bilan farq qiladi. Bu bilan (11)-forma pirimitivdir va diskreminanti $B^2 - 4AC$ diskreminant $b^2 - 4ac$ bilan teng bo'ladi, M modulning halqa ko'paytuvchilarida.

Shunday qilib

$$\{\alpha, \beta\} \rightarrow f(x, y) \quad (12)$$

akslanishga ega bo'lamiz, u α, β har bir bazis bilan $R(\sqrt{d})$ maydonda (10)-shartda $f(x, y)$ pirimitiv forma mos keladi. (haqiqiy maydonda A koeffisient manfiy bo'lishi mumkin).

Xullas bunda (11)-formaning eng kichik kvadratik maydoni doimo musbat aniqlangan, chunki manfiy aniqlangan formalar (12)-mos holda tashqarida qoladi.

Teorema-4: Agar $\mathfrak{M}$ bu barcha o'xshash sinflar to'plami tor ma'noda $R(\sqrt{d})$ kvadratik maydonlarning modullari va $\mathfrak{F}$ barcha $d > 0$ dagi to'plamlar va musbat aniqlanganlari $d < 0$ dagi sinflar xos ekvivalent pirimitiv binar kvadratik formalar, $R(\sqrt{d})$ ga yoyiluvchilari chiziqli ko'paytuvchilarga (12)-akslantirishda o'zaro bir xillik $\mathfrak{M}$ va $\mathfrak{F}$ lar orasida sodir bo'ladi, bunda agar qandaydir modullar sinfi D diskreminantli halqa ko'paytuvchilariga tegishli bo'lsa, unda ularga mos keluvchi forma ham D diskreminantga ega bo'ladi.

Agar α, β va α_1, β_1 ikkita maydon bazisi $R(\sqrt{d})$ da ular uchun (9)-ko'rinishdagi determinant (10)-shartni qanoatlantiradi va bu bazislar f va f_1 formalarga mos keladi. 4-teoremani isbot qilish uchun biz, f va f_1 formalarni mos ekvivalent qachonki-qachon $\{\alpha, \beta\}$ va $\{\alpha_1, \beta_1\}$ modullar tor ma'noda o'xshashdir. Keyinchalik biz, har qanday keltirilmaydigan $g(x, y)$ pirimitiv formalar uchun va musbat aniqlangan, agar $d < 0$ bo'lsa, α, β bazis mavjud bo'ladi (10)-shart bilan birgalikda, bunda (11)-forma $g(x, y)$ bilan mos keladi. Ushbu umumiy ko'rsatmalar bilan cheklanamiz.

Biz oldin o'xshash modullarning ko'paytmasini aniqlagan edik. Xuddi shunday qilib, modullarni sinfini ham ko'paytmasi, tor ma'noda aniqlash mumkin. $\mathfrak{M} \rightarrow \mathfrak{F}$ ga bir xil mosligidan sinflarning ko'paytmasi formalarning ko'paytmasiga o'tkazilishi mumkin. Xullas $\mathfrak{F}$ ga aniq ko'paytirish, formalarning kompazisiyasi nomini anglatadi. Chunki barcha modullar sinfi, aniq holda ko'paytmasiga tegishli bo'lsa, ular guruhni tashkil etadi, demak barcha pirimitiv formalar sinflari D diskreminantda ham guruhni tashkil etadi.

Sonlarni binar formalar va o'xshash modullar bilan tasvirlash

Bunda biz, sonlarni binar kvadratik formalar bilan ifodalashda ular kvadratik maydonda modullarning o'xshashligiga kelib qoladi.

Agar $f(x, y)$ pirimitiv binar kvadratik forma $D \neq 0$ diskreminanti, $R(\sqrt{d})$ maydonda chiziqli ko'paytuvchlarga yoyilsin va m natural son. $D < 0$ holda biz f formani musbat aniqlangan deb hisoblaymiz.

Endi biz

$$f(x, y) = m \quad (13)$$

aniqlanmagan tenglamaning barcha butun sonlar yechimini topish masalasi bilan shug'ullanamiz, (biz m ni musbat aniqlagan holi bilan cheklanamiz, chunki $m < 0$, $D > 0$ holda f ni o'rniga $-f$ formani qaraymiz).

(4)-teorema asosan f formani quyidagicha ifodalaymiz:

$$f(x, y) = \frac{N(\alpha x + \beta y)}{N(M)} \quad (14)$$

bu erda α, β bazislar M modul (10)-shartni qanoatlantiradi. $(x, y) \rightarrow \xi = \alpha x + \beta y$ akslantirishda o'zaro bir xillik moslik (13)-tenglama yechimi va $\xi \in M$ soni $N(\xi) = mN(M)$ norma bilan birga. Assosirlanmagan yechim tushunchasi (14)-tasvirlashni tanlashga bog'liq emas. $\mathfrak{D}$ ni M modulni halqa ko'paytuvchisi orqali ifodalaymiz va C modul sinfi tor ma'noda, M dagi tashkil etuvchilari sifatida. 4-teoremadan C sinf f forma bilan bir xil aniqlangan.

Biz $\xi \in M$ sonni $mN(M)$ normasi bilan deymiz. $A = \xi M^{-1}$ modulni qaraymiz. Chunki $AM = \xi M^{-1}M = \xi \mathfrak{D} \subset M$ bo'ladi, A modul esa $\mathfrak{D}$ ga tegishli. uning normasi $N(\xi)N(M)^{-1} = m$ bo'ladi. Yana A esa C^{-1} modulga teskari sinfiga tegishli. Aksincha, C^{-1} sinfda A modul mavjud deb hisoblaymiz, u $\mathfrak{D}$ halqada yotadi va m normaga ega deb. Bunda qandaydir ξ musbat normaga biz $A = \xi M^{-1}$ ga ega bo'lamiz, bunda $\xi \in MA \subset M$ va $N(\xi) = m$ bo'ladi. Agar A_1 boshqa C^{-1} sinfdagi modul bo'lsa, $\mathfrak{D}$ da yotadigan m norma bilan va $A_1 = \xi_1 M^{-1}$ bo'lsa demak A_1, A bilan mos tushadi qachonki-qachon ξ_1 esa ξ bilan assosirlangan bo'lsa. Shunday qilib, ushbu teoremani isbotladik.

Teorema-5: Agar $f(x, y)$ forma C modulning sinfiga mos kelsa (tor ma'noda) $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilari bilan. (13)-ning yechimini barcha assosirlangan sinflari o'zaro bir-biri bilan mosligi topiladi A ning barcha modullari bilan, ular C^{-1} teskari sinfga tegishlidir, $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilrida yotib, m normaga ega. x, y yachimlar A modulga mos bo'lib, ξ soni bilan aniqlanadi, bular uchun $A = \xi M^{-1}$, $N(\xi) > 0$ bo'ladi, bu erda M modul C sinfdan.

Har qanday m natural uchun biz barcha A dagi modullar $\mathfrak{O}$ halqa ko'paytuvchilari bilan, ular $\mathfrak{O}$ da yotadi va u m normaga ega. A shunday modul bo'lsinki, uning eng kichik k natural son bo'lsin A dagi. A modulni quyidagicha ifodalaymiz.

$$A = \{k, k\gamma\} = k\{1, \gamma\}$$

γ esa butun sonli hadlarning ishorasi bilan aniqlanadi. Biz endi γ ni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\begin{cases} l m \gamma > 0, & d < 0 \\ l r r > 0, & d > 0 \end{cases} \quad (15)$$

($l r r$ esa γ sonni irratsional qismini ifodalaydi), ikkinchida γ ni ratsional qismi $\left(-\frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right]$ orqali yotadi. Agar γ son ichun 1-lemmadan va uni

$$\gamma = \frac{-b + \sqrt{D}}{2a}, \quad (16)$$

ko'rinishda yozamiz, bunda ikkinchi sharti quyidagicha bo'ladi

$$-a \leq b < a \quad (17)$$

$\mathfrak{O} = \{1, a\gamma\}$ tenglikdan va $A \subset \mathfrak{O}$ shratdan biz k ni a ga bo'lamiz, ya'ni $k = as$ butun S bilan. Chunki $m = N(A) = k^2 \frac{1}{a}$ dan

$$m = as^2 \quad (18)$$

A ni quyidagicha ifodalaymiz

$$A = as\{1, \gamma\} \quad (19)$$

bu erda a, s va γ lar (18), (15) va (17)-shartlarga mos. Haqiqatda agar $as\{1, \gamma\} = a_1 s_1\{1, \gamma_1\}$ bo'lsa, bu yerda a_1, s_1 va γ_1 o'sha talabga javob beradi, bunda $as = a_1 s_1$ va $\{1, \gamma\} = \{1, \gamma_1\}$ bo'ladi. 1-lemma izohidan $a = a_1$ ni olamiz va

$s = s_1$ bo'ladi. Bundan tashqari γ esa $\{1, \gamma\}$ modulda (15) va (17)-shartlarni qanoatlantiradi, bundan $\gamma = \gamma_1$ bo'ladi. Endi, aksincha holini qaraymiz, (18)-bajarilsin deb. Agar b va c quyidagi shartni qanoatlantirsa:

$$b^2 - 4ac = D, (a, b, c) = 1, -a \leq b < a \quad (20)$$

bunda γ son uchun (16) dan $A = as\{1, \gamma\}$ modul esa $\mathfrak{D} = \{1, a\gamma\}$ o'zining halqa ko'paytmasida yotadi va uning normasi $a^2 s^2 \frac{1}{a} = m$.

Shunday qilib, biz A modulning barcha bizga keraklarini olamiz, agar $s > 0, a > 0, b, c$ (18) va (20)-shartlarni qanoatlantiradi.

Agar biz algaritmga ega bo'lsak, uni yordamida $R(\sqrt{d})$ maydonning to'liq ikkita o'xshash va tor ma'noda masalasini yechish mumkin, $A \subset \mathfrak{D}$ dagi barcha modullarni yozib m -normsi bilan, ularda faqat M^{-1} modulga mosini tanlab olamiz. 5-teoremadan (13)-ning barcha yechimlarini olamiz. 5-teoremadan quyidagi tasdiqni olamiz.

Teorema-6: m natural son qandaydir primitiv kvadrat forma bilan D diskreminantda ifodalash uchun zarur va etarli sharti uchun $\mathfrak{D}$ tartib D diskreminantda A modul mavjud, ushbu tartibga tegishli va m normaga ega holda. Oxirgi hol $s > 0, a > 0, b, c$ sonlarni mavjudligiga teng kuchlidir quyidagi shartni qanoatlantirsa: $m = as^2, b^2 - 4ac = D, (a, b, c) = 1, -a \leq b < a$.

D diskreminant $\tilde{\mathfrak{D}}$ ning eng kata tartibga teng bo'lsa, ikkinchi tasdiq 6-teorema soddalashadi.

Teorema-7: D kvadratik maydonning diskreminanti bo'lsin. $m = as^2$ natural son bo'lishi uchun, a kvadrat holi bo'lib, qandaydir binar pirimitiv forma D diskreminant uchun, zarur va etarli sharti bo'lib ushbu tenglama yechilishi lozim

$$x^2 \equiv D \pmod{4a} \quad (21)$$

Mavhum kvadrarik maydonda o'xshash modullar

$R(\sqrt{d})$, $d < 0$ mavhum kvadratik maydon holida, modullarning o'xshashligi masalasini yechimi mavjud bo'ladi. $\alpha \in R(\sqrt{d})$ dagi sonning geometrik tasviri $\mathbb{R}^2$ fazoda oddiy kompleks sonlar bilan mos tushadi. $M \subset R(\sqrt{d})$ to'la modulning sonlari bunda nuqtalar bilan ifodalanadi, qandaydir $\mathbb{R}^2$ dagi to'la panjarada. Keyinchalik $\mathbb{R}^2$ dagi kompleks sonlarni tasvirlanishini farqlamaymiz. Shuning uchun M modulga mos $\mathbb{R}^2$ panjarani M bilan belgilaymiz. Chunki M panjaraning barcha nuqtalari $\xi \neq 0$ kompleks sonda M panjarani burishga olib keladi, agar ξ burchakka va $|\xi|$ ga cho'zishga, bunda M va ξM o'xshash modullarga mos keluvchi panjaralar o'xshashdir, geometrik ma'noda. Bu xususiyatga biz keyinchalik doimo tayanamiz.

Panjaralarning o'xshashligi savollari tekislikda maxsus bazisni qurishga bog'liq, keltiriladigan deb ataladi. Keltiriladigan α , c bazis qisqa nolli α vektordan iborat va nokolleniar qisqa β vektordan iboratdir. Har qanday M panjarada shunday α va β vektorlarni doimo bazis tashkil etishini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham, agar bu bunday bo'lmaganda edi M da $\xi = u\alpha + v\beta$ vektor mavjud bo'lar edi, unda u va v lar bir vaqtda butun bo'lmaydi. Bu vektorlarga α va β larning chiziqli kombinatsiyasini qo'shsak, unda $|u| \leq \frac{1}{2}$ va $|v| \leq \frac{1}{2}$ bo'ladi. Agar $v \neq 0$ bo'lsa, β ni tanlab, $|\xi| \geq |\beta|$ bo'ladi va u


$$|\xi| < |u\alpha| + |v\beta| \leq \frac{1}{2}|\alpha| + \frac{1}{2}|\beta| \leq |\beta|$$

Agar $v = 0$ va $|\xi| = |u\alpha| \leq \frac{1}{2}|\alpha| < |\alpha|$ bo'lsa α ni tanlashdan bizning tasdig'imiz isbotlandi.


Agar α eng qisqa vektorlardan, β esa nokolleniar qisqa vektordir bo'lsin, unda β ning proeksiyasi α vektorga $\frac{1}{2}|\alpha|$ dan oshmaydi. Haqiqatda $\beta + n\alpha$ vektorlar orasida ($n \in \mathbb{Z}$), shunday vektor borki uning proyeksiyasi $\leq \frac{1}{2}|\alpha|$. Boshqa tomondan $\beta + n\alpha$ eng kichik uzunlikka ega kichik proeksiyasi bilan.

Endi ushbu M panjara uchun barcha noldan farqli eng qisqa vektorlarni qaraymiz va ularning sonini w bilan belgilaymiz. Chunki α vektor o'rniga $-\alpha$ vektorni olsak u ham eng qisqa bo'ladi, bundan w juft sonidir. Keyin α va α' vektorlar orasidagi burchak $\frac{\pi}{3}$ kichik bo'lishi mumkin emas, chunki aksincha $\alpha - \alpha'$ vektor panjarada eng qisqa uzunlikka ega bo'lardi. Bundan $w \leq 6$ bo'ladi, demak qisqa vektorlar uchun ushbu hollar bo'ladi: $w = 2$, $w = 4$, $w = 6$

M panjarada keltirilgan bazisni qurishga o'tamiz. Agar $w = 2$ bo'lsa, α sifatida ixtiyoriy ikkita qisqa vektorni olamiz. Vektorlar orasida α bilan nokolliniarlarida ikkita yoki to'rttasi eng qisqa bo'lishi mumkin. (1, 2-rasmlar). β sifatida ham o'sha vektorlarni olamiz α dan β ga φ burchakka burishda.




Rasm i-1




Rasm -2

Agar $w = 4$ yoki $w = 6$ bo'lsa, keltirilgan bazis sifatida α va β juft vektorlardan ikkitasini olamiz, φ burchak eng kichik bo'lsin.



Rasm -3




Rasm -4

Keltirilgan bazisni burilishlik aniqligida panjara bilan aniqlash mumkin,.

$w = 2$ yoki $w = 4$ bo'lgan hollarda $\frac{\pi}{3} < \varphi < \frac{\pi}{2}$ bo'ladi, (3-rasm), ikkita keltirilgan bazis bo'ladi, ular bir-biriga π ga karrali burchakka burishda o'tadi. $w = 4$, $\varphi = \frac{\pi}{2}$ da (4-rasm) biz kvadrat panjaraga ega bo'lamiz, ular to'rtta

keltirilgan bazisga ega bo'ladi, $\varphi = \frac{\pi}{2}$ burchakka burish $w = 6$ da oltita keltirilgan bazisga ega bo'lamiz, ular bir-biriga $\varphi = \frac{\pi}{3}$ burchakka burishda o'tadi. (5-rasm)



Rasm -5

Keltirilgan bazisni tushunchasidan, tekislikka panjaralarni o'xshashligi masalasini yechish mumkin.

Teorema-8: M va M_1 panjaralar $\mathfrak{R}^2$ da o'xshash qachonki-qachon, qachon ularning keltirilgan bazislari o'xshash bo'ladi.

Isbot: Agar α, β va α_1, β_1 keltirilgan bazislar M va M_1 panjaralarda. Agar $\xi M = M_1$ bo'lsa, $\xi\alpha, \xi\beta$ keltirilgan bazis bo'ladi M_1 da. Bu bazis buralganda α_1, β_1 bazisga o'tish kerak, shuning uchun η sonida, $\eta\xi\alpha = \alpha_1, \eta\xi\beta = \beta_1$ bo'ladi.

Shunday qilib α_1, β_1 bazis α, β bazisdan $\arg(\eta\xi)$ burchakka burishdan olamiz va cho'zilishi $|\eta\xi|$ marta bo'ladi, bu ularning o'xshashligidir. Teoremaning aksinchasi ham shunday oddiydir. Endi mavhum kvadratik maydon modullarining o'xshashligi sinflarini ifodalashga o'tamiz. Agar M ixtiyoriy $R(\sqrt{d})$ modul bo'lsa, $d < 0$ va α, β qandaydir M da. O'xshash modulga o'tamiz: $\frac{1}{\alpha}M = \{1, \gamma\}$, bu yerda $\gamma = \frac{\beta}{\alpha}$. $1, \gamma$ bazis ham ham keltirilgan. Keltirilgan bazis ta'rifidan, γ soni quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:


$$\text{Im}\gamma > 0, \quad (22)$$

$$-\frac{1}{2} < \text{Re}\gamma \leq \frac{1}{2}, \quad (23)$$

$$\left. \begin{array}{l} |\gamma| > 1, \text{ agar } -\frac{1}{2} < \text{Re}\gamma < 0 \\ |\gamma| \geq 1, \text{ agar } 0 \leq \text{Re}\gamma \leq \frac{1}{2} \end{array} \right\} \quad (24)$$

Ta'rif: r soni keltirilgan mavhum kvadratik maydondan bo'lsin, agar u (22),(23), (24)-shartlarni qanoatlantirsa, γ bilan birga $\{1, \gamma\}$ maydon ham

keltirilgan deyiladi. γ ning geometrik keltirilganlik sharti, bu Γ sohada kompleks sonlarning tasvirlanishidir (6-rasm).



Rasm -6

Teorema-9: Mavhum kvadratik $R(\sqrt{d})$ maydonda har bir o'xshash sinflarga $d < 0$ da faqat va faqat bitta keltirilgan modul yotadi.

Isbot: Har bir sinfda keltirilgan modulning mavjudligi oldin isbotlangandi.

Endi har xil keltirilgan modullarning o'xshash emasligini isbotlash qoldi. Buning uchun, har qanday, $\gamma = x + zi$ keltirilgan son $1, \gamma$ keltirilgan bazisni $\{1, \gamma\}$ panjarada tashkil etadi. Buning uchun γ eng qisqa $\{1, \gamma\}$ panjaradagi vektorlar ya'ni $|k + l\gamma| \geq |\gamma|$ har qanday k da va $l \neq 0$. Chunki $|x| \leq \frac{1}{2}$ bo'lsa,

$$|k \pm \gamma|^2 = (k \pm x)^2 + y^2 \geq x^2 + y^2 = |\gamma|^2$$

bo'ladi.

Agar $|l| \geq 2$ bo'lsa,

$$|k + l\gamma|^2 \geq l^2 y^2 > 2y^2 > x^2 + y^2 = |\gamma|^2$$

bo'ladi, bu esa tasdiqning isboti. Agar γ va γ_1 ikkita keltirilgan son bo'lsin. Agar $\{1, \gamma\}$ va $\{1, \gamma_1\}$ modullar o'xshash bo'lsa, 8-teoremadan $1, \gamma$ va $1, \gamma_1$ bazislar o'xshashdir. Buni $\gamma = \gamma_1$ da osongina ko'rsatish mumkin, 9-teorema isbotlandi.

Savol va masalalarning to'liq yechimi uchun modullarning o'xshashligini mavhum kvadratik maydonda, bizga keltirilgan modulni topish algoritmi ham kerak. Bu oldin masalada keltirilgan. M va M_1 modullarni o'xshashligini bilish uchun biz ularga o'xshash modullarni topamiz, dastlabki M va M_1 modullar o'xshash qachonki-qachon, qachon ularning keltirilgan modullari mos tushadi.

Izoh: (zamechaniya) 9-teorema isbotida, biz modullarni mavhum kvadratik maydonlarda yotishini inobatga olmadik. Ushbu teoremani tasdig'i o'rinli,

ixtiyoriy teks panjaralar uchun: har qanday panjara kompleks tekislikda faqat va faqat bitta panjaraga $\{1, \gamma\}$ o'xshash, bu erda γ qandazdir son Γ sohadan (6-rasm). 2-lemmadan, ikkita panjara $\{1, \lambda\}$ va $\{1, \gamma\}$ o'xshash qachonki-qachon ular quyidagicha

$$\lambda = \frac{k\gamma + l}{m\gamma + n}, \quad kn - ml = \pm 1$$

bo'ladi, k, l, m, n butun ratsionallar bilan. Bunday juftlar kompleks sonlarda modulyar ekvivalent deb ataladi. Olingan natijalar, har bir kompleks son modulyar ekvivalent faqat va faqat bitta songa Γ sohada. Γ soha esa modulyar figura deyiladi. Yuqorida aytilganidek uning nuqtalari tekislikda o'xshash panjaralar sinfi mos keladi. Tekis panjaralarning o'xshashligi sinfi masalalari, elliptik funksiya nazariyasida ko'plab uchraydi. Elliptik funksiyaning har bir maydoni o'zining davriy panjarasi bilan beriladi, lekin elliptik funksiya maydoni izomorflidir qachonki-qachon ularga mos keluvchi panjara davrlari ham o'xshash bo'lsa. Shunday qilib Γ modulyar figura o'zaro bir xildir o'zini izomorf elliptik funksiyasi maydonida.

Endu o'xshash modullar sinfini qaraymiz, qandaydir olingan $\mathfrak{D}$ tartibli $D < 0$ diskreminanti bilan. Agar $\{1, \gamma\}$ modul, $\gamma \in \Gamma$ da bo'lsa, u $\mathfrak{D}$ tartib tegishli bo'ladi. Agar yana γ son uchun biz 1-lemma belgilashlardan foydalanamiz va quyidagicha yozamiz:

$$\gamma = \frac{-b + i\sqrt{|D|}}{2a}$$

bunda (23) va (24)-shartlar ushbuni beradi

$$\left. \begin{array}{l} -a \leq b < a \\ c \geq 0, \quad b \leq 0 \\ c > a, \quad b > 0 \end{array} \right\} \quad (25)$$

Shunday qilib, mavhum kvadratik maydonning keltirilgan modulini to'la sistemasini olish uchun D tartibga tegishli biz barcha $a > 0$, b, c uchlik sonlarni topishimiz kerak (25) shartni qanoatlantiradigan

$$D = b^2 - 4ac, \quad (a, b, c) = 1 \quad (26)$$

3-teoremaga asosan bunday uchlik sonlar cheklidir, bular

$$|D| = 4ac - b^2 \geq 4a^2 - a^2 = 3a^2$$

$$|b| \leq a < \sqrt{\frac{|D|}{3}}$$

larning kuchiga asosan D da berilgan a va b larda, demak c uchun ham biz chekli sonli imkoniyatlarni aniqlaymiz.

Misol-1: Modullar sinflarining sonini topamiz, $R(\sqrt{-47})$ maydon eng kata tartibiga tegishli, bunda $|b| \leq a < \sqrt{\frac{47}{3}}$ bo'ladi. D ning toqligini inobatga olib, b ham toq bo'ladi, bundan $b = \pm 1, b = \pm 3$ larni olamiz. Ikkinchi holda $b^2 - D = 56 = 4ac$, $ac = 14$, $3 \leq a \leq c$ bo'lishi mumkin emas. Agar $b = \pm 1$ bo'lsa, $b^2 - D = 48 = 4ac$ dan

$$a = 1, c = 12; a = 2, c = 6; a = 3, c = 4$$

larni olamiz. $b = 1 = a$ holi uchun $R(\sqrt{-47})$ max maydon tartibi uchun 5-ta o'xshash modullar sinfi mavjud bo'ladi. Bu sinflarning vakillari bo'lib, $\{1, \gamma\}$ keltirilgan modul hisoblanadi bu erda γ quyidagilarning biriga teng:

$$\frac{1 + i\sqrt{47}}{2}, \quad \frac{\pm 1 + i\sqrt{47}}{4}, \quad \frac{\pm 1 + i\sqrt{47}}{6}$$

Oldingi bandda kvadratik maydon uchun modullarning o'xshashligi masalasi (13)-tenglamani yechishni beradi.

Misol-2: $M = \{13, 1 + 5i\}$ modulda barcha sonlarni 650 normada topamiz. Bu erda halqa ko'paytuvchisi bo'lib, $\mathfrak{D} = \{1, 5i\}$ hisoblanadi $D = -100$ diskriminant bilan. Chunki $N(M) = 13$ bo'lib, u $\mathfrak{D}$ ga tegishli va $m = \frac{650}{13} = 50$ normaga ega. (18) va (20)-shartlar bizga quyidagilarni beradi:

- 1) $s = 5, a = 2, b = -2, c = 13$
- 2) $s = 1, a = 50, b = 10, c = 1$
- 3) $s = 1, a = 50, b = -10, c = 1$
- 4) $s = 1, a = 50, b = -50, c = 13$

Har bir ushbu 4 hol uchun (19)-dek A modulni va unga keltirilgan o'xshash modullarni topamz:

$$\begin{aligned} &10 \left\{ 1, \frac{1+5i}{2} \right\}, \\ &50 \left\{ 1, \frac{-1+i}{10} \right\} = (-5+5i) \{1, 5i\} \\ &50 \left\{ 1, \frac{1+i}{10} \right\} = (5+5i) \{1, 5i\} \\ &50 \left\{ 1, \frac{5+i}{10} \right\} = 10i \left\{ 1, \frac{1+5i}{2} \right\} \end{aligned}$$

Ya'ni M^{-1} uchun ham keltirilgan modulni topamiz:

$$M^{-1} = \left\{ 1, \frac{1-5i}{13} \right\} = \frac{1-5i}{13} \left\{ 1, \frac{1+5i}{2} \right\}$$

2) va 3) hollarda A modul tashlanadi, chunki M^{-1} modulga o'xshash. Qolgan ikkita holda 1) va 4) $A = \xi M^{-1}$ tenglik $\xi = 5+25i$ va $\xi = -25+5i$ bo'ladi. chunki $\mathfrak{O}$ halqa ikkita birlarga ega ± 1 , xullas M modulda 4-son mavjud: $\pm(5+25i)$ va $\pm(-25+5i)$ lar 650 norma bilan.

Qaralgan misolda, biz $13x^2 + 2xy + 2y^2 = 50$ ga ega bo'ldik, to'rtta sonli yechimga ega:

$$\begin{aligned} x=0, \quad y=5; \quad x=0, \quad y=-5 \\ x=2, \quad y=-1; \quad x=-2, \quad y=1 \end{aligned}$$

Misol-3: Qanday natural sonlar $x^2 + y^2$ bilan ifodalanad. Formaning diskreminanti $D = -4$. Tartibi $\mathfrak{O} = \{1, i\}$ bo'lib, $R(\sqrt{-1})$ maydonda faqat bitta keltirilgan modulga ega, chunki (25) va (26)-shartlar $a = c = 1$, $b = 0$ da bajariladi. Bu esa barcha modullarni, $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli, o'zaro o'xshashdir va $x^2 + y^2$ barcha biror diskreminantlari -4 ga teng.

Lekin ekvivalent formlarni faqat bitta son ifodalaydi, shuning uchun 6-teoremadan $x^2 + y^2$ forma m sonni ifodalaydi qachonki-qachon, qachon $A \subset \mathfrak{O}$ modul mavjud bo'lsa, $\mathfrak{O}$ tartibga tegishli va m normali. Agar bunday modul mavjud bo'lsa, unda s , a , b , c lar uchun quyidagilar o'rinli:

$$m = as^2, \quad D = -4 = b^2 - 4ac, \quad (a, b, c) = 1$$

bu erda b soni juft bo'lishi zarur, $b = 2z$, lekin z esa

$$z^2 \equiv -1 \pmod{a} \quad (27)$$

sharti qanoatlantirishi zarur. Aksincha, oxirigi taqqoslash $a = \frac{m}{s^2}$ da yechiladigan bo'lsa, ya'ni $z^2 = -1 + ac$ bundan $(a, 2z, c) = 1$ ni olish mumkin, bu esa $A \subset \mathfrak{D}$ mavjudligini anglatadi va u $\mathfrak{D}$ tartibda yotadi m norma bilan, ya'ni m esa $x^2 + y^2$ forma bilan ifodalanadi.

(27)-asosan, qachonki-qachon u yechimlidir, qachon a esa 4 ga bo'linmasa va tub sonlarga yoyilmasa $4k + 3$ son kabi. Chunki a son m ga tegishli barcha tub sonlar toq darajada qatnashadi, undan m ning aniq $x^2 + y^2$ forma kabi ifodalanishini qachonki-qachon, $4k + 3$ soni nafaqat unga juft darajada qatnashadi.

III-bob. KOMPYUTER ALGEBRASI USULI BILAN YOYILUVCHAN FORMALARNING MINIMUMINI HISOBLASH VA SHU FORMALARGA MOS KLEYN KO'PYOQLIKLARINI QURISH

3.1-§ *Formalar va modullar*

Sonlar nazariyasidan ayrim ta'riflarni keltiramiz [3]. Agar $Z[x]$ -ko'phadlarning xalqasi x bo'yicha butun koeffitsiyentlari berilgan bo'lsin. $Z[x]$ ko'phadning ildizlari algebraik sonlar deb aytiladi va uning eng katta koeffitsiyenti 1 ga teng bo'lsa, algebraik sonlar butun bo'ladi.

$Z[x]$ ko'phadning ustida $p(x)$ ga darajasi n bo'lsa, uning ildizi bo'lib qandaydir λ son hisoblanadi, λ sonning darajasi deb aytiladi, qolgan $n-1$ ta ildizlari $\lambda^{(j)}$ esa $p(x)$ ko'phadning algebraik sonlari deyiladi, $\lambda = \lambda^{(1)}$ ga qo'shma bo'ladi (Q ratsional sonlar maydonida).

$\sum_{j=1}^{n-1} a_j \lambda_j, a_j \in Q$ dagi darajaning chiziqli kombinatsiyasi $Q(\lambda)$ kengaytmali maydonni tashkil etadi. Q maydon uchun n -esa $Q(\lambda^{(j)})$ maydon uchun daraja deb aytiladi, $Q(\lambda)$ ga qo'shma bo'lganda. $p(x)$ ko'phadning belgilangan ildiz nomerlari-raqamlari maydonning nomerlarini beradi. Maydonning elementlari to'plami, ratsional koeffitsiyentlari bilan ifodalangan maydonning barcha elementlarini ifodalaydi va u maydon bazisi deb ataladi. $1, \lambda^{(j)}, \dots, \lambda^{(j)n-1}$ bazisda berilgan $\lambda^{(1)k} \rightarrow \lambda^{(j)k}, k=0, \dots, n-1, j=1, \dots, n$, dagi akslantirish maydonning tabiiy izomorfizmini ifodalaydi, bunda $\alpha^{(1)}$ maydonning soniga $\alpha^{(k)}$ - mos keladi. U $Q(\lambda)$ maydonga qo'shma bo'ladi. $Norm(\alpha)$ normasi α algebraik sonning bu ratsional son bo'lib, barcha α - larning va uning qo'shmalari ko'paytmasidir:

$$Norm(\alpha) = \alpha^{(1)} \dots \alpha^{(n)}.$$

Agar $p(x)$ ko'phadning barcha ildizlari, $Q(\lambda)$ maydonda to'liq bo'lsa haqiqiy deb aytiladi. α elementga mos keluvchi akslantirish n o'lchamli vektor maydoni $(\alpha^{(1)}, \dots, \alpha^{(n)}) \in R^n$, $Q(\lambda)$ maydonning kanonik qo'shiluvchisi deb aytiladi.

Agar $v_1, \dots, v_m \in Q(\lambda)$ berilgan bo'lsa va xuddi shunday $V = (v_1, \dots, v_m) \in Q_m(\lambda)$ vektor ham berilgan bo'lsin. N -modul (aniqrog'i Z -modul) v_j ifodalovchisi bilan $Q(\lambda)$ ifoda ko'p sonli chiziqli kombinatsiya to'plami deb aytiladi.

$$N = \left\{ \sum_{j=1}^m y_j v_j, Y = (y_1, \dots, y_m) \in Z^m \right\}$$

Aytishadiki, modullari o'xshash deb, agar ularda proporsional tashkil etuvchi sistemasi mavjud bo'lsa. $V^{(j)} = (v_1^{(j)}, \dots, v_m^{(j)}) \in Q^m(\lambda^{(j)})$ - vektorlar qo'shma maydondagi komponentalari bilan modul tashkil etadi N ga qo'shmalikda. Modulning nuqtalari Y ning barcha butun sonli imkoniyatlarida (V, Y) chiziqli formaning qiymati kabi ifodalanadi. Modul to'liq bo'ladi, agar uning m eng ko'p chiziqli bog'lanmagan tashkil etuvchilarining soni n maydonning darajasiga teng bo'lsa.

Har bir N modulga, to'liq haqiqiy maydonda bir xilda ikkita obyekt to'g'ri keladi. Birinchi obyekt bu m o'lchamli to'la panjara. R^n da bu modul nuqtalarining proyeksiyalari to'plami kanonik qo'yilishda bo'ladi.

$$\left\{ \left(\sum_{j=1}^m y_j v_j^{(1)}, \dots, \sum_{j=1}^m y_j v_j^{(n)} \right) \in R^n, y_j \in Z \right\}.$$

